

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**ORIENTAL  
UNIVERSITETI**

**XOLMONOVA NODIRA SHUXRAT QIZI**

# **TARIXSHUNOSLIK**

**(xorij mamlakatlari)**

**Uslubiy qo‘llanma**

**TOSHKENT 2026**

**UO‘K 94**  
**KBK 63.2**  
**X 74**

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma “Tarix” ta’lim yo‘nalishining ikkinchi va to‘rtinchi bosqichlarida o‘tiladigan “Manbashunoslik va tarixshunoslik” fanining o‘quv mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan mavzulari doirasida mustaqil ta’lim ishlarini tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan.

**Xolmonova N.Sh. Tarixshunoslik (xorij mamlakatlari). Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Oriental universiteti, 2026. – 66 b.**

**Taqrizchilar:**

**Z.A. Ilxomov** – O‘zbekiston Milliy Pedagogika universiteti “Tarix” kafedراسi professori, tarix fanlari nomzodi;

**I.U. Bobojonov** – Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedراسi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

*Uslubiy qo‘llanma Oriental universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil 19-dekabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

© Xolmonova Nodira Shuxrat qizi, 2026.

© Oriental universiteti, 2026.

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH</b> .....	4
I BOB	Tarixshunoslik fan sifatida.....	6
1-§	XVII-XVIII asrlarda xorijiy mamlakatlar tarixi tarixshunosligi.....	6
	Mustaqil ta'lim uchun topshiriq namunalari.....	14
2-§	XIX asrda xorijiy mamlakatlar tarixi tarixshunosligi....	18
3-§	XX asr xorij tarixshunosligi.....	34
4-§	XXI asr boshlarida xorijiy mamlakatlar tarixi tarixshunosligi.....	48
	<b>XULOSA</b> .....	61
	Tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar.....	63

## KIRISH

Mustaqillik yillari mamlakatimiz ta'lim sohasida yuz bergan o'zgarishlar tufayli mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa, «Yangilanayotgan O'zbekiston – yangicha dunyoqarash» g'oyasi ostida bugungi kunda kechayotgan o'zgarishlar ta'lim tizimini ham chetlab o'tayotgani yo'q. O'zbekistonda Oliy ta'limni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan konsepsiyasining qabul qilinishi, qo'shma dasturlar orqali nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan o'zaro hamkorliklarning yo'lga qo'yilishi, O'zbekistonda dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallarining ochilishi, xalqaro reyting va indekslarda respublika oliy ta'lim tizimining nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar buning misolidir. Malakali kadrlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib, bugungi kunda ta'lim to'g'risidagi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Unda mamlakatimizda mustaqillik yillari ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar va undagi ayrim kamchilik va nuqsonlarni tanqidiy tahlil etilgan holda bu tizimda o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Fanlarni optimallashtirish yo'lidan borilmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanma mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarning o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o'quv adabiyotlaridan farq qiladi. Mavzular shu yo'nalishda tasdiqlangan «Tarixshunoslik va manbashunoslik» fanining namunaviy dasturi asosida yoritilgan.

Mavzu so'nggida texnologik usullar, nazorat savollari va topshiriqlari, tayanch tushunchalar, glossariy berilgan. Umuman, ushbu o'quv qo'llanma nafaqat oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilar va talabalariga, balki tarixshunoslikka qiziquvchi va uni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganlar hamda ilmiy-tadqiqot olib borish usullari bilan tanishishni xohlovchilar uchun ham mo'ljallangan.

Shu o'rinda qayd etish joizki, mazkur uslubiy qo'llanmada mustaqil ta'limni tayyorlash uchun bitta mavzu namuna sifatida ko'rsatilib, qolgan mavzular uchun namunaviy ma'ruza matni ilova qilingan.

Foydalanuvchilar tarixshunoslik fanidan mustaqil ta'limni tayyorlash jarayonida yoki xorij tarixshunosligi uchun qo'shimcha ma'lumotlar o'rnida mazkur matnlardan foydalanishi mumkin bo'ladi.

Mazkur uslubiy qo'llanma talabalarning "Tarixshunoslik" fanidan mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, ularning ilmiy-nazariy fikrlash, tarixiy tahlil, xulosa chiqarish hamda zamonaviy taraqqiyot jarayonlari bilan bog'liq holda baholash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Qo'llanmaga asosan xorij tarixshunosligiga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi yurtimiz olimlari tomonidan keng o'rganilganligi va xorijiy tarixshunoslik masalalari bugunga qadar keng yoritilmaganligi jihatdan qator ma'ruzaviy matn ham kiritilgan. Bundan foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsad qilingan.

**I BOB. TARIXSHUNOSLIK FAN SIFATIDA**  
**1-§: XVII-XVIII ASRLARDA XORIJIY MAMLAKATLAR**  
**TARIXI TARIXSHUNOSLIGI**

**Reja:**

1. Ilmiy-metodologik asoslarning shakllanishi.
2. Ma'rifatparvar tarix falsafasining yuzaga kelishi.
3. Madaniy va milliy tarixshunoslikning dastlabki ko'rinishlari.

XVII-XVIII asrlar Yevropa tarixshunosligi uchun chuqur o'zgarishlar, yangi yo'nalishlar va zamonaviy tarix fanining asoslari shakllangan davr bo'ldi. Bu davrni *"Tarixshunoslikning Ilm-fanga aylanishi"* deb atash mumkin.

XVII-XVIII asrlar tarixshunosligini chuqurroq va tizimliroq uchun uni uch asosiy yo'nalish doirasida tahlil qilish maqsadga muvofiq:

- 1) Ilmiy-metodologik asoslar shakllanishi
- 2) Ma'rifatparvar tarix falsafasining ko'tarilishi
- 3) Madaniy va milliy tarixshunoslikning dastlabki ko'rinishlari

Fan doirasidagi yangiliklar: Aqliy taraqqiyot, empirizm, ilmiy metodlarning paydo bo'lishi

Tarixshunoslikda o'zgarishlar: Diniy qarashlardan dunyoviy va ilmiy yondashuvga o'tish

Asosiy markazlar: Fransiya, Angliya, Niderlandiya, Germaniya kabi qator davlatlarni ko'rsatish mumkin.

XVII-XVIII asrlarda tarixshunoslik faniga xos asosiy xususiyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Tarix fanining mustaqillashuvi: Tarix ilohiyot va she'riyatning kichik bo'limi bo'lib qolmadi, balki mustaqil intellektual faoliyat sohasiga aylandi
- Usulning ustuvorligi: Tarixchi faqat voqealarni naql qiluvchi emas, balki manbalarni tanqidiy tahlil qiluvchi tadqiqotchiga aylandi
- Tarix maqsadining o'zgarishi: Tarixning vazifasi qirolni maqtoov yoki diniy ta'limotni tasdiqlovdan ko'ra, jamiyatni tushunish va

undan kelajakda foydalanish uchun dars olish uchun xizmat qilishga aylandi

- Ziddiyatlar: Davr o'zida ziddiyatlarni saqlab qoldi: ratsionalizm (Ma'rifat) va his-tuyg'ular (Gerder), universalizm va milliy xususiylik, taraqqiyot va sikllilik g'oyalari bir vaqtning o'zida yashab, keyingi asrlardagi tarixiy munozaralarni shakllantirdi
- Ushbu chuqur metodologik va falsafiy poydevor XIX asrda tarixshunoslikning "Oltin asri" – Leopold fon Ranke va uning izdoshlari tomonidan professional fan sifatida yakuniy shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi
- Ma'rifatparvarlik ruhining ta'siri: XVIII asr, ayniqsa, Ma'rifat davri (Enlightenment) bilan ajralib turdi. Tarixchilar tarixni irsiy, diniy yoki tasodifiy hodisalar sifatida emas, balki *aqliy qonuniyatlar asosida tushunish* va undan kelajakni yoritish uchun foydalanishga intildilar. Tarix "ustoz" emas, balki "dars" bo'lishi kerak edi.
- Tanqidiy usulning rivojlanishi: Manbalarni ko'r-ko'rona ishonish o'rniga, ularning ishonchliligi, kelib chiqishi va maqsadini tanqidiy tahlil qilish (manbashunoslik) rivojlandi. Bu usul tarixni afsona va rivoyatlardan ajratib, uni fan darajasiga ko'tardi.
- Diniy an'anadan dunyoviylikka o'tish (sekulyarlashuv): Tarix tushunchasining markazida ilgari "Xudoning irodasi" turgan bo'lsa, endi *inson, jamiyat, madaniyat va iqtisodiy omillar* olindi. Tarix "Qadimgi zamondan hozirgi kungacha bo'lgan tsivilizatsiya taraqqiyoti" sifatida qarala boshlandi.
- Universal tarix g'oyasi: Ma'rifatparvar tarixchilar ma'lum bir davlat yoki xalq tarixini emas, balki butun insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyotini umumiy qonunlar asosida yozishga harakat qilishdi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy mavzularning paydo bo'lishi: XVIII asr oxirida madaniyat, urf-odatlar, savdo, hunarmandchilik kabi mavzularga qiziqish kuchaydi.

**Ilmiy-metodologik asoslarning shakllanishi davri.**

Ilmiy-metodologik asoslar shakllanishi davri "tanqidiy usul" va "eruditsiya davri" deb ham nom oldi. Bu yoʻnalish asosan XVII asrda rivojlandi va tarixni afsonaviy rivoyatlardan holi qilib, hujjatli dalillarga asoslangan fanga aylantirishga intildi. Bu davrda tarixchilar "qanday bilamiz?" degan savolga javob topishga harakat qilishdi. Ularning ishi nafaqat tarixshunoslikka, balki barcha gumanitar fanlar uchun metodologik poydevor yaratdi. Mazkur davr qator xususiyatlarga ega boʻlib, oʻz ichida bir nechta yoʻnalishlarga ega boʻlgan, ular:

- Ma'muriy (Erudit) tarixshunoslik - Asosan XVII asrda rivojlangan. Bu yoʻnalish vakillari hujjatlarni toʻplash, tizimlashtirish va nashr etish bilan shugʻullangan. Ularning ishi tanqidiy usulning asosini yaratdi.
- Mabilyon monastiri monaxlari (Maurists) (Fransiya) - Jean Mabillon kabi olimlar hujjatlar va qoʻlyozmalarning haqiqiylikni aniqlashning ilmiy usullarini ishlab chiqdilar. Mabillonning "De re diplomatica" (1681) aseri diplomatika (hujjatshunoslik) fanining asosi hisoblanadi.
- Bollandistlar (Belgiya) - Avliyolar hayotini hujjatlar asosida qayta tahlil qilish va nashr etish bilan shugʻullangan (1-jadval)

Vakil (davlat)	Asosiy hissasi	Asari	Metodologik yangiligi
<b>Jean Mabillon</b> (Fransiya)	Diplomatika fanining asoschisi. Hujjatlar haqiqiylikni aniqlashning tizimli usullarini ishlab chiqdi	" <i>De re diplomatica</i> " (1681)	Hujjatning materiali, yozuv uslubi, imlo, sana berish tartibi kabi jihatlarni tahlil qilish orqali uning haqiqiylikni aniqlash
<b>Bollandistlar</b> (Belgiya)	Diniy manbalarga tanqidiy yondashuvni joriy qildi. Avliyolar	" <i>Acta Sanctorum</i> "	Manbalarni xonologik tartibda nashr etish va

	hayotini hujjatlar asosida qayta tahlil qilish	(Avliyolar Hayoti)	ularning ishonchliligi haqida izohlar beris
<b>Lorenzo Valla</b> (Italiy a)	Filologik tanqid usulining kashfiyotchisi. "Konstantin vasiyatnomasi" soxtaligini isbotladi	"Konstantin vasiyatnomasi haqida" (1440)	Til va uslubni tahlil qilish orqali matnning yozilgan davrini aniqlash. Bu usul keyingi davr olimlari uchun asos bo'ldi



**Jean Mabillon**



**Lorenzo Valla**

### **Ma'rifatparvar tarix falsafasining yuzaga kelishi.**

XVIII asrda tarixshunoslik markazida taraqqiyot, aql va universal qonuniyatlar tushunchalari turdi. Ma'rifatparvar tarixchilar tarixni o'qituvchi sifatida ko'rdilar. Ular o'tmishdagi xatolardan saboq olish va uning yorug'likda aql-idrok asosida qurilishiga ishonishdi (2-jadval).

Vakil (davlat)	Asosiy hissasi	Asari	Metodologik yangiligi
Voltaire (Fransiya)	Madaniyat tarixi va davr ruhi g'oyasining dasturchisi. Tarixni urushlar va hukmdorlar emas, balki xalqlarning madaniy taraqqiyoti sifatida ko'rdi.	"Lyudovik XII asri haqida essa" (1751)	Tanqidiy va dunyoviy. Diniy fanatizmni qattiq tanqid qildi. Ma'rifatning tarqalishi bilan jamiyatning takomillashishini bog'ladi.
Edvard Gibbon (Buyuk Britaniya)	Rim imperiyasining qulashini murakkab, ko'p omilli sabablar natijasida tushuntirdi. Diniy sabablarni (masalan, nasroniylik) bir omil sifatida ko'rsatdi	"Rim imperiyasining tanazzul va qulash tarixi" (1776-1788)	Ilmiy-ratsonalistik. Uzluksiz manbalardan foydalandi, dalillarni tanqidiy tahli qildi. Taraqqiyot g'oyasiga qarama-qarshi holda, tsivilizatsiyaning zaiflashuvi va qulashi mavzusini olg'a surdi.
Montesquieu (Fransiya)	Tarixiy jarayonlarning geografik, iqlimiy va institutsional sabablarini izohladi.	"Qonunlar ruhi haqida" (1748)	Qiyosiy-sotsiologik. Muayyan qonunlar ma'lum geografik va ijtimoiy sharoitlarda qanday paydo bo'lishini ko'rsatishga harakat qildi.

David Hume (Shotlandiya)	Tarixni inson tabiatining doimiyligi va psixologik omillar nuqtai nazaridan tahlil qildi.	"Angliya tarixi" (1754-1761)	Skeptik-psixologik. Voqealarga shubha bilan qarashni, ularni insoniyatning doimiy xususiyatlari kontekstida tushunishni taklif qildi.
-----------------------------	---	------------------------------	---



**Voltaire**



**Montesque**

### **Madaniy va milliy tarixshunoslikning dastlabki ko‘rinishlari.**

Madaniy va milliy tarixshunoslik g‘oyalari ma'rifatparvarlikning universal tarix g'oyasini rivojlantirdi. Ya'ni, ma'rifatparvarlikning universal g‘oyalari qarshi reaksiya sifatida paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalish har bir madaniyatning o‘ziga xosligini ta’kidladi. Viko va Gerder kabi tarixshunoslarning g‘oyalari ma'rifatparvarlikning universal aql g‘oyasiga qarshi chiqdi va har bir madaniyatni uning o‘z shartlari va tarixiy kontekstida tushunish zarurligini ta’kidladi (3-jadval).

Vakil (Davlat)	Asosiy hissasi	Asari	Metodologik yangilik
Giambattista Vico (Italiya)	Tarixiy siklik nazariya va "davruhi" g'oyasini ilgari surdi. Tarixni insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti deb hisobladi.	"Yangi fan" (1725)	Madaniy-antropologik. Uning fikricha, sivilizatsiyalar ilohiy, qahramonlik va insoniy davrlardan o'tadi. Har bir davr o'ziga xos til, qonun va san'atga ega.
Johann Gottfried Herder (Germaniya)	"Xalq ruhi" (Volksgeist) g'oyasini yaratdi. Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, tili va an'analari borligini, ularni tashqi me'yorlar bilan o'lchab bo'lmasligini ta'kidladi.	"Insoniyat tarixi g'oyalari" (1784-1791)	Madaniy-nisbiy. Bu g'oya keyinchalik milliy romantik tarixshunoslik va milliy davlatlar shakllanishi uchun intellektual asos bo'lib xizmat qildi.



**Giambattista Vico**



**Johann Gottfried Herder**

Bu davrda qator g'arb davlatlari miqyosida tarixshunoslikka nazar tashlasak, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- Fransuz tarixshunosligi – XVII-XVIII asrlarda Fransiya tarixshunosligi diniy providensializmga dunyoviy ratsionalizmga, xronikadan tahlilga, hukmdorlar tarixidan jamiyat va madaniyat tarixiga o'tish davri bo'ldi. Ushbu davrda yaratilgan g'oyalar va metodologik yondashuvlar butun Yevropa tarixshunosligiga kuchli ta'sir ko'rsatdi va zamonaviy tarix fanining asosini quradi.
- Angliya tarixshunosligi – XVII-XVIII asrlarda Angliya tarixshunosligi o'zining amaliy va empirik xarakteri bilan ajralib turardi. U siyosat va institutlar tarixiga, xususan, konstitutsiyaviy taraqqiyot va fuqarolik erkinliklari qanday shakllanganiga qaratilgan edi. Fransuz ma'rifatparvarlarining keng falsafiy umumlashtirmalaridan farqli o'laroq, ingliz tarixchilari (Yum, Robertson, Gibbon) batafsil dalillarga va manbalarning sinchkovlik bilan o'rganilishiga asoslangan. Ushbu an'ana Angliya tarixshunosligiga "ilmiylik" va ishonchlilik tuyg'usini berdi va keyingi pozitivistik tarixshunoslikning rivojlanishiga kuchli zamin tayyorladi.
- Nemis tarixshunosligi – XVII-XVIII asrlarda Germaniya tarixshunosligi ilmiy metodika va madaniy o'zlik o'rtasidagi o'ziga xos muvozanatni ifodalaydi. Fransuz ma'rifatparvarligining universal g'oyalaridan farqli o'laroq, nemis tarixchilari har bir madaniyatning noyobligi va tilning tarixiy tushunishdagi ahamiyatini ta'kidladilar. Ushbu an'ana XIX asrda nemis tarixshunosligining dunyoda yetakchilik qilishiga asos bo'lib xizmat qildi va zamonaviy tarix fanining metodologik poydevorini yaratdi. Germaniya tarixshunosligi tarixni nafaqat siyosiy hodisalar, balki madaniy va ma'naviy jarayonlar sifatida tushunishga yo'naltirdi (4-jadval).

## Solishtirma jadval

Xususiyat	Germaniya tarixshunosligi	Fransuz tarixshunosligi	Angliya tarixshunosligi
Asosiy e'tibor	Madaniy o'ziga xoslik: til, milliy ruh	Jamiyat islohoti, universal aql	Siyosiy erkinliklar, konstitutsiya
Falsafiy asos	Madaniy tarix falsafasi (Gerder)	Sotsial ratsionalizm (Volter)	Empirizm (Yum)
Milliy muammo	Milliy o'zlikni qayta qurish	Qadimgi rejimni ag'darish	Fuqarolik jamiyatini mustahkamlash
Metodologiya	Filologik-manbashunoslik	Falsafiy-tanqidiy	Amaliy-tajribaviy
Asosiy vakillar	Gerder, Leybnits, Gatterer	Volter, Monteskye, Russo	Yum, Gibbon, Robertson

Xulosa tariqasida aytish joizki, XVII-XVIII asrlar tarixshunosligi:

- Xurofot va afsonalardan ilmiy tanqidiy tahlilga o'tdi.
- Diniy talqindan dunyoviy va ratsionalistik talqinga aylandi.
- Hukmdorlar va urushlar tarixidan jamiyat, madaniyat va insoniyat tarixiga qarashni boshladi.
- Mahalliy voqealar yozishdan universal tarix va umumiy qonunlarni izlashga intildi.

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriq namunalari

#### *Glossariy tuzish*

(Talabalar bunda mavzu ichidan qator yangi tushunchalarni topib, ularning izohini beradilar)

Ratsionalizm –

“Eruditsiya davri” –

Mabilyon monastiri –

Bollandistlar –  
Providensializm –

### *Test tuzish*

(Mavzu doirasida talaba ixtiyoriy sonda ma'lumotlarni mustahkamlash uchun testlar tuzishi mumkin)

1. XVII asrda hujjatlar haqiqiylikni aniqlashning ilmiy usullarini ishlab chiqqan va "De re diplomatica" asari bilan diplomatika fanining asosini qo'ygan fransuz olimi kim edi?

- A) Voltaire
- B) Edward Gibbon
- C) Jean Mabillon
- D) Montesquieu

To'g'ri javob: C) Jean Mabillon

---

2. "Rim imperiyasining tanazzul va qulashi tarixi" asarini yozgan va Rimning qulashida nasroniylikning rolini tanqidiy tahlil qilgan ingliz tarixchisi kim edi?

- A) David Hume
- B) Giambattista Vico
- C) Edward Gibbon
- D) Johann Gottfried Herder

To'g'ri javob: C) Edward Gibbon

---

3. "Xalq ruhi" (Volksgeist) g'oyasini ilgari surgan, har bir xalqning o'ziga xos madaniyati va tarixini ta'kidlagan nemis faylasufi kim edi?

- A) Montesquieu
- B) Voltaire
- C) Johann Gottfried Herder
- D) David Hume

To'g'ri javob: C) Johann Gottfried Herder

---

4. Qaysi tarixchi "davr ruhi" g'oyasini ilgari surib, tarixni urushlar va hukmdorlar tarixi emas, balki madaniyat va aql taraqqiyoti tarixi sifatida ko'rgan?

- A) Jean Mabillon
- B) Voltaire
- C) Giambattista Vico
- D) Bollandistlar

To'g'ri javob: B) Voltaire

---

5. "Yangi fan" asarida tarixiy tsiklik nazariyani ilgari surgan, tsivilizatsiyalar ilohiy, qahramonlik va insoniy davrlardan o'tadi degan fikrni bildirgan italyan faylasufi kim edi?

- A) Edward Gibbon
- B) Giambattista Vico
- C) David Hume
- D) Montesquieu

To'g'ri javob: B) Giambattista Vico

---

6. "Qonunlar ruhi haqida" asarida tarixiy jarayonlarning geografik, iqlimiy va institutsional omillarga bog'liqligini tahlil qilgan fransuz faylasufi kim edi?

- A) Voltaire
- B) Montesquieu
- C) Jean Mabillon
- D) David Hume

To'g'ri javob: B) Montesquieu

---

7. XVII asrda avliyolar hayotini hujjatlar asosida qayta tahlil qilish va nashr etish bilan shug'ullangan, tanqidiy manbashunoslik usulini rivojlantirgan belgiyalik olimlar guruhi qaysi edi?

- A) Mavristlar
- B) Bollandistlar
- C) Gumanistlar
- D) Romantiklar

To'g'ri javob: B) Bollandistlar

---

8. "Angliya tarixi" asarini yozgan va tarixiy jarayonlarni psixologik va ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qilgan shotlandiyalik tarixchi va faylasuf kim edi?

- A) Edward Gibbon
- B) David Hume
- C) Voltaire
- D) Johann Gottfried Herder

To'g'ri javob: B) David Hume

---

9. XVIII asr Ma'rifat davri tarixshunosligining asosiy xususiyati qaysi edi?

- A) Tarixni afsona va rivoyatlar asosida yozish
- B) Tarixni faqat qirollar va urushlar haqida hikoya qilish
- C) Tarixni aqliy qonuniyatlar asosida tushunish va undan kelajak uchun dars olish
- D) Tarixni faqat diniy nuqtai nazardan tahlil qilish

To'g'ri javob: C) Tarixni aqliy qonuniyatlar asosida tushunish va undan kelajak uchun dars olish

---

10. Giambattista Viconing "Yangi fan" asarida ilgari surilgan asosiy g'oya qaysi edi?

- A) Tarix chiziqli taraqqiyot qiladi
- B) Tarix takrorlanuvchi tsikllardan iborat
- C) Tarixni faqat iqtisodiy omillar belgilaydi
- D) Tarixni faqat buyuk shaxslar yaratadi

To'g'ri javob: B) Tarix takrorlanuvchi sikllardan iborat.

---

### ***Taqdimot tayyorlash***

(Talaba mavzu doirasida kamida 15 betli taqdimot tayyorlaydi va PPTX formatda electron shaklda namoyish etadi)

Rasmiylashtirish talablari:

A) Mini-fotoalbom shaklida:

- 10–15 sahifa;
- Har bir sahifada kamida 1 ta foto va 3–5 jumalalik izoh;
- Sarlavhalar katta harflarda, tartibli joylashtirilgan;
- Fotosuratlar manbalari (ruxsat etilgan ochiq saytlardan).

B) Elektron ijodiy loyiha (taqdimot) shaklida:

- 10–12 slayd (PowerPoint yoki Canva formatida);
- Rasm, infografika, statistik ma'lumot va iqtiboslar;
- Har bir bo'lim uchun 1–2 slayd;
- Taqdim etishda dizayn va muvofiqlikka e'tibor berish.

## **2-§: XIX ASRDA XORIJIY MAMLAKATLAR TARIXI TARIXSHUNOSLIGI**

### **Reja:**

1. Davr xususiyati va asosiy yo'nalishlari: Romantizm.
2. Tarixiy pessimizm.
3. Ilmiy tarixshunoslik.
4. Pozitivizm.
5. Milliy tarixshunoslik.

XIX asr Yevropa va Amerikada zamonaviy tarixshunoslikning shakllanish davri bo'ldi hamda fan sifatida shakllandi. Ushbu asrda tarix falsafadan ajralib chiqib, mustaqil va professional akademik fan darajasiga ko'tarildi. L. Rankening manbashunoslik maktabi, K. Marksning materialistik talqini va romantiklarning milliy ruhni o'rganishdagi sa'y-harakatlari keyingi asrlardagi barcha tarixiy maktab va yo'nalishlarning asosini tashkil etdi.

Bu davr tarixshunosligiga xos xususiyatlar esa quyidagilarni tashkil etdi:

- Professionalizatsiya: tarixchilik kasbi shakllandi, arxivlar tashkil etildi, tarix jurnallari nashr qilina boshlandi.
- Manbashunoslik usuli: Manbalarning tanqidiy tahlili va tekshirilishi tarixchi kasbiy faoliyatining asosiga aylandi.

- Siyosiy va diplomatik tarixning ustunligi: Asosiy e'tibor davlatlar, hukmdorlar, urushlar va diplomatik kelishuvlar tarixiga qaratilgan edi.
- Progress g'oyasi: Ko'pgina tarixchilar (Marks va Burkhardt kabi istisnolar bilan) insoniyatning chiziqli taraqqiyotiga ishonishgan.

XIX asrda qator tarixshunoslik yo'nalishlari va maktablari shakllandi:

1. Romantizm.
2. Tarixiy pessimizm.
3. Ilmiy tarixshunoslik.
4. Pozitivizm.
5. Milliy tarixshunoslik.

### **Romantizm**

Bu yo'nalish XIX asrning boshlarida Yevropada paydo bo'lgan kuchli tarixiy oqim bo'lib, u XVIII asr ma'rifat davrining universal, ratsionalistik va ba'zan abstrakt g'oyalariga keskin reaksiya sifatida shakllangan. Romantizmning asosiy xususiyatlari va tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Individualizm va "Xalq Ruhi" (Volksgeist). Ma'rifat davri tarixchilari barcha insoniyat uchun umumiy bo'lgan "insoniy tabiat" va universal qonuniyatlar borligiga ishongan bo'lsa, romantiklar har bir xalqning (millatning) o'ziga xosligi va "ruhi" borligini ta'kidladilar. Nemis faylasufi Yoxann Gotfrid Gerderning "Volksgeist" (xalq ruhi) tushunchasi romantik tarixshunoslikning asosiga aylandi. Unga ko'ra, har bir millatning o'ziga xos til, madaniyat, urf-odatlar va tarixiy taqdiri mavjud. Tarixchining vazifasi - o'sha noyob "xalq ruhi"ni ochib berish va tushuntirishdan iborat.

2. O'tmishga, an'anaviy qadriyatlarga hurmat va nostalgiya. Romantiklar o'rta asrlarni ma'rifatparvarlarning "qorong'u va mavhum asr" deb atashlariga qarshi chiqdilar. Ular o'rta asr ritsarligi, feodal munosabatlar, diniy e'tiqod va xalq og'zaki ijodini olqishladilar. Ular o'tmishni "oltin davr" sifatida romantiklashtirishga va uni zamonaviy jamiyatning ma'nosi yo'qligi va parchalanganligiga qarshi qo'yishga intilishdi.

3. Hissiyot va vijdonning ustuvorligi. Ma'rifatparvarlarning sovuq aqli va ratsionalizmidan farqli o'laroq, romantiklar hissiyot, his-tuyg'u, ilhom va vijdonni tarixiy tushunishning asosiy vositasi deb bilishgan. Tarixchi o'z obyektiga "o'zini qo'yish" (yoki nemischa "Einfühlung"), ya'ni o'tmishdagi odamlarning hissiyot va motivlarini tushunishga harakat qilishi kerak edi.

4. Tarixning organik rivojlanishi g'oyasi. Romantiklar tarixni daraxt kabi o'sadigan va rivojlanadigan organik jarayon deb hisobladilar. Har bir davr o'zidan oldingi davrning tabiiy davomi hisoblanadi. Bu, ma'rifatparvarlarning har qanday jamiyatni "noldan" qurish mumkin degan g'oyasiga qarama-qarshi edi.

5. Milliy va mahalliy rang-baranglikni nishonlash. Romantik tarixshunoslik milliy davlatlarning shakllanish davrida rivojlandi. Ko'plab tarixchilar o'z millatlarining qadimgi ildizlarini, tilining go'zalligini va milliy madaniyatining noyobligini o'rganishga kirishdilar. Bu milliy o'zlikni anglash va milliy g'ururni kuchaytirishga xizmat qildi.

Yuqoridagi kabi g'oyalarni ilgari surgan romantizmning asosiy vakillari va ularning tarixshunoslikka qo'shgan hissalarini:

❖ Yoxann Gotfrid Gerder (1744-1803)

*Asosiy asari:* "Insoniyat Tarixi Ustida Fikrlar"

*Hissasi:* Romantik tarixshunoslikning nazariy asoschisi. Uning Volksgeist tushunchasi butun oqimga yo'nalish berdi. Gerder ta'kidlaganidek, har bir davr va har bir madaniyat o'ziga xos qadriyatga ega va uni o'z shartlari bo'yicha baholash kerak.

❖ 2. Tomas Karlayl (1795-1881)

*Asosiy asari:* "Qahramonlar, ularga sig'inish va tarixdagi qahramonliklar"

*Hissasi:* Karlayl "Buyuk shaxslar" tarixning asosiy drayveri, deb hisoblagan. Unga ko'ra, dunyoni o'zgartirish qudrati va ilhomga ega bo'lgan qahramonlar (harbiy qahramonlar, diniy payg'ambarlar, shoirlar) yaratadi. Uning qarashlari "qahramonlar nazariyasi" nomi bilan mashhur. Bu, romantik individualizmning eng yuqori cho'qqisi sanalgan.

❖ 3. Jyul Mishele (1798-1874)

*Asosiy asari:* "Fransiya tarixi" va "Fransiya inqilobi tarixi".

*Hissasi:* Mishele tarixning asosiy qahramoni sifatida shaxslarni emas, balki butun xalqni ko'rdi. Uning asarlari xalqning azob-uqubatlari, ishonchlari va kurashlari bilan qon tomirida bo'lib, juda hissiy va tasviriy uslubda yozilgan. U fransuz xalqining "ruhi"ni tutib olishga va uni tiriltirishga intildi.

❖ 4. Frederik Shlegel (1772-1829) va Avgust Vilgelm Shlegel (1767-1845)

*Hissasi:* Nemis adabiyotshunoslari va faylasuflari bo'lib, ular Hindiston va qadimgi german madaniyatlarini o'rganish orqali har bir madaniyatning o'ziga xosligi g'oyasini targ'ib qilishdi.

Romantik tarixshunoslikning o'z qarashlari fan rivojiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi:

*Tarix doirasini kengaytirdi* – nafaqat, siyosat va urushlar, balki madaniyat, din, til, adabiyot, san'at va xalq og'zaki ijodini ham o'rganish ob'ektiga aylantirdi.

*Manbalarga yangicha yondashuv* – rasmiy hujjatlardan tashqari, afsonalar, dostonlar, qo'shiqlar, naqshlar va me'morchilik yodgorliklarini ham muhim manba sifatida qarala boshlandi.

*Shuningdek*, tarixiy davr va madaniyatlarning nisbiyligi g'oyasini ilgari surdi. Hamda milliy tarixshunoslikning rivojlanishiga kuchli turtki bo'ldi.

Romantik yo'nalish tarixshunoslik fanining rivoji bilan qator tanqidlarga uchradi hamda asosiy kamchiliklari sifatida qator salbiy jihatlar ilmiy adabiyotlarda yoritila boshladi:

*Idealizatsiya va noaniqlik:* ko'pincha o'tmishni haddan tashqari go'zal va mukammal qilib ko'rsatish, tarixiy haqiqatni buzishga olib keldi.

*Milliy g'ururning haddan oshirilishi:* ko'p hollarda o'z millatining ustunligi g'oyasini targ'ib qilib, boshqa xalqlarni kamsitishga yo'l ochdi. Bu keyinchalik millatchilik va irqchilikning oqilona asosiga aylandi.

*Ilmiylikning yetishmasligi:* ba'zi romantik tarixchilar hissiyotga berilib, manbalarning tanqidiy tahliliga yetarlicha e'tibor bermasliklari mumkin edi.

Xulosa qilganda, romantik tarixshunoslik tarixni sovuq ratsionalizm va universal qonunlardan ozod qilib, uni murakkab, rang-barang va jonli jarayon sifatida ko'rishga o'rgatdi. U tarixda milliy, madaniy va individual omillarning ahamiyatini ta'kidlab, keyingi davr tarixchilariga, jumladan, madaniyat tarixchilari va "Annales" maktabiga keng yo'l ochib berdi.

### **Tarixiy pessimizm**

Tarixiy pessimizmning markazida tarixning to'g'ri chiziq bo'ylab doimiy ravishda ilgari siljiydigan bir jarayon emas, balki madaniyatlarning yuksalishi va qulashi sikli joy olgan. Pessimist tarixchilar insoniyatning ma'naviy va madaniy jihatdan tanazzulga yuz tutayotganiga, texnologik va moddiy taraqqiyot esa bu tanazzulni bosa olmasligiga ishonishgan. Mazkur yo'nalish quyidagicha xususiyatga ega:

*Industrializatsiya va uning ogibatlari:* Shaharlarning o'sishi, an'anaviy qadriyatlarning parchalanishi, massalar jamiyatining paydo bo'lishi.

*Siyosiy o'zgarishlar:* 1848-1849-yillardagi inqiloblarning muvaffaqiyatsizligi, milliy davlatlarning kuchayishi va ularning ma'muriy-markazlashtirilgan tuzilmalari.

*Ma'rifat va progress g'oyasiga ishonchning pasayishi:* Ko'pchilik tarixchilar (masalan, pozitivistlar yoki Gegelchilar) tarixning ma'noli bir magsad sari harakatlanishiga ishongan bo'lsa, pessimistlar bunga shubha bilan qaradilar.

Bu doirada, tarixiy pessimizm zamonaviylikning qorong'u tomonini ko'ra oladigan va uning xavflaridan ogohlantiradigan "kassandra" rolini o'ynadi.

Pessimizm doirasida qator tarixchi olimlar faoliyat olib borgan bo'lib, ularning xizmati tarixshunoslikda yangicha qarashlarga sabab bo'ldi.

Yakob Burkhardt (1818-1897) – tarixiy pessimizmning eng yorqin va ta'sirli ifodasini ko'rsata olgan shveytsariyalik tarixchi va madaniyatshunos olim. U nemis "ilmiy tarix" maktabining (Ranke)

shogirdi bo'lishiga qaramay, uning progressga bo'lgan ishonchiga qo'shilmadi. Uning asosiy qarashlari va tahlillari:

1. Davlat, din va madaniyat o'rtasidagi muhit - ...

Burkhardt tarixni quyidagi uch doimiy kuchning o'zaro ta'siri orqali tushunish kerak, deb hisobladi:

Davlat: bu - qonuniy kuch. U doimiy ravishda kuchayib, markazlashib, individual erkinlikni cheklashga intiladi.

Din: bu - ruhiy va axloqiy kuch. U odamlarga hayotning ma'nosini beradi.

Madaniyat: bu - ijodiy va intellektual kuch. Ya'ni, san'at, adabiyot, fikrlash, falsafa.

Muallifning fikricha, eng yuqori madaniy yutuqlar ushbu uch kuchning nisbatan muvozanatda bo'lgan davrlarida (masalan, Uyg'onish davrida Italiyada) erishiladi. Zamonaviy davrda esa Davlatning haddan tashqari kuchayishi va Dinning ta'sirini yo'qotishi bu nozik muvozanatni buzib, madaniyat va individualistik qadriyatlar xavf ostiga qo'yadi.

2. Madaniyatning tanazzulga uchrashi. Burkhardt "taraqqiyot" deb atalgan narsa, aslida, madaniyatning sayozlashuvi va sifatsizlanishi bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. U o'zining eng mashhur asari "Uyg'onish davri Italiya madaniyati" (1860) da nafaqat Uyg'onishning yorqin yutuqlarini, balki uning qizg'in shaxsiyati, shafqatsiz siyosati va oxir-oqibatdagi tanazzulini ham tasvirlab berdi.

3. "Chidamli shaxs"ning yo'qolishi. Burkhardt maqsadli, mustaqil, ko'p qirrali shaxsni (Uyg'onish "universal odami" kabi) eng oliy qadriyat deb hisoblardi. U zamonaviy jamiyatning massalashuvi, ixtisoslashuvi va siyosiy qatnashishning pasayishi bu turdagi shaxsni yo'q qilib yuborishidan qo'rqan.

4. "Chiziqli progress" g'oyasiga qarshi chiqish. U tarixning ma'lum bir maqsadga (masalan, erkinlik davlati) qarab harakat qilishini rad etdi. Buning o'rniga, u tarixda davriylik va kutilmagan hodisalar (o'ziga xos "tarixiy zilzilalar") muhim rol o'ynashini ta'kidladi.

5. Kelajakdan havotirlanish. Burkhardt XX asrning totalitar rejimlarini oldindan ko'rganga o'xshardi. U "Zamonavylik vaqtidagi jilovlanmagan

kuchlar" haqida ogohlantirdi. Uning mashhur xabari shundaki: "Kelajak yovuzroq hukmdorlarga tegishli".

Garchi, Ya. Burkhardt eng yorqin namuna bo'lsa-da, boshqa faylasuf va tarixchilarning asarlarida ham pessimistik ohanglarni topish mumkin edi:

Artur Shopenhauer: Uning falsafasi hayotning asosi qiyinchilik va azob-uqubatlar, deb hisoblagan. Tarix esa ma'nosiz voqealar ketma-ketligidir.

Fridrix Nitsche: Uning "tanazzul" va "nigilizm" haqidagi tahlillari Burkhardtning qayg'ulariga yaqin edi. Ularning ikkalasi ham Bazel universitetida bir vaqtning o'zida dars bergan va ular o'rtasida chuqur intellektual hamkorlik mavjud bo'lgan.

Tarixiy pessimizm bugungi kun tarixshunosligida o'ziga xos meros qoldirgan bo'lib, ularni quyidagilarda ko'rish mumkin:

XX asr voqealarining oldindan aytilishi: birinchi va ikkinchi jahon urushlari, fashizm va stalinizm kabi totalitar rejimlarning paydo bo'lishi Burkhardtning ogohlantirishlarini ajoyib tarzda tasdiqladi.

Madaniy tarixning mustahkamlanishi: u Uning usuli tarixni faqat siyosat va iqtisodiyot nuqtai nazaridan emas, balki madaniyat va ruhiyat jihatidan ham o'rganish zarurligini ta'kidladi.

Progress g'oyasining tanqidi: u zamonaviy dunyoning eng muqaddas qarashlaridan biriga qarshi chiqdi va "taraqqiyot" tushunchasini tanqidiy baholashga undadi.

Hozirgi zamon uchun dolzarflik: globalizatsiya, ekologik inqiroz, an'anaviy qadriyatlarning erishi va kuchli davlat apparatining mavjudligi haqidagi hozirgi munozaralar Burkhardtning asosiy mavzularini aks ettiradi.

Xulosa qilganda, tarixiy pessimizm - bu tarixning qorong'u, tragediyali tomonini ko'rishga jur'at qilgan intellektual an'ana. U bizni tarixning "g'alaba" va "magsad" haqidagi soddalashtirilgan hikoyalari bilan ko'proq ishonchsizlik bilan yondashishga o'rgatadi. Yakob Burkhardt kabi pessimistlar nafaqat o'tmishni, balki kelajakni ham chuqurroq tushunishimizga yordam beradigan muhim ogohlantirishlar qoldirdilar.

## **Ilmiy tarixshunoslik**

Mazkur maktab vakillari tarix haqiqatni aniq va xolis (obyektiv) tarzda qayta tiklay oladigan mustaqil fan bo'lishi kerak degan asosiy g'oyani ilgari surdi. U XIX asr boshidagi romantik tarixshunoslikning hissiyotga berilishiga va ma'rifat davrining spekulyativ falsafasiga qarshilik sifatida paydo bo'ldi.

Ushbu maktabning rivojlanishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatdi:

- Nemis tilli universitetlarning rivojlanishi va ularning akademik erkinligi.
- Milliy birlik uchun kurash (1871-yilgacha) nemis ziyolilarida o'zining noyob tarixiy yo'lini izlash va o'rganish ehtiyojini kuchaytirdi.
- Filologiya (matnlar tanqidiy tahlili) va huquqshunoslik kabi sohalarda rivojlangan manbashunoslik usullari.

Ilmiy tarixshunoslik maktabining asoschisi Leopold fon Ranke (1795-1886) sanaladi. Ranke bu maktabning otasi va ramzidir. Uning 1824-yilda nashr etilgan birinchi yirik asari "Roman va german xalqlari tarixi, 1494–1514" ning kirish qismi yangi tarixshunoslikning deklaratsiyasiga aylandi. Rankening bu sohadagi asosiy qarashlari va g'oyalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Maqsad: "Voqealar qanday bo'lsa, shunday ko'rsatish" (wie es eigentlich gewesen). Bu Rankening eng mashhur iborasidir. Uning ma'nosi shundaki, tarixchi o'z qarashlari, ishtiyoqi yoki zamonaviy siyosiy vaziyatga bo'ysunmasdan, faqatgina o'tmishdagi haqiqiy holatni aniqlashga va tasvirlashga intilishi kerak.

2. Manbalarning tanqidiy tahlili (Quellenkritik). Ranke maktabining eng muhim metodologik hissasidir. Tarixchi har qanday manbani quyidagi savollar asosida sinchkovlik bilan tekshirishi kerak:

Muallif kim? Uning ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi, maqsadi qanday edi?

Manba qachon yozilgan? Voqeadan darhol keyinmi yoki uzoq vaqt o'tgachmi?

Manba qayerdan kelgan? Manba muallifning shaxsiy kuzatuvimi, yoki u boshqa manbalardan nusxa ko'chirganmi?

Manba ishonchlimi? Muallif qanchalik ishonarli, uning ma'lumot berish imkoniyati qanday edi?

3. Arxiv ma'lumotlariga asoslanish. Ranke va uning shogirdlari tarixni qurish uchun afsonalar yoki ikkinchi darajali manbalarga emas, balki davlat arxivlaridagi birinchi darajali hujjatlarga (diplomatik yozishmalar, hisobotlar, shartnomalar, xotiralar) tayanish kerak, degan g'oyani ilgari surdilar. Bu tarixshunoslikni "arxivda ishlash" kasbiga aylantirdi.

4. Obyektivlik g'oyasi. Ranke tarixchi "hukm chiqaruvchi hakim" emas, balki , "hujjatlarni tasvirlovchi guvoh" bo'lishi kerak, deb hisoblagan. Uning maqsadi o'tmishni ma'ruzalar o'qish yoki qandaydir falsafiy g'oya uchun material sifatida emas, balki uning o'zida mavjud bo'lgan holda tushunish edi.

Rankening g'oyalari nafaqat nazariyada, balki amaliyotda ham amalga oshirildi. Ranke Berlin universitetida birinchi tarix seminarini tashkil etdi. Bu yerda talabalar manbalarni to'plash, tahlil qilish va sharhlashni amaliyotda o'rgandilar. Bu zamonaviy aspirantura tizimining prototipidir. Muallif 1832-yilda "Tarix- falsafa jurnali" (Historisch-politische Zeitschrift) ni tashkil etib, unda ilmiy usul va tadqiqot natijalarini nashr eta boshladi. Keyingi amalga oshirgan yirik ishi 1819-yilda boshlangan "Monumenta Germaniae Historica" loyihasi bo'lib o'rta asrlar nemis tarixiga oid barcha muhim manbalarni nashr etishni maqsad qilgan. Bu manbashunoslikning amaliy namunasiga aylandi.

Shuningdek, Rankedan tashqari, nemis ilmiy maktabi yana bir qator tarixchilarni yetishtirdi. U;ardan biri, *Teodor Mommzen* (1817–1903). Qadimgi Rim tarixi bilan shug'ullangan. Uning "Rim Tarixi" asari 1902-yilda adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Mommzen epigrafik manbalar (yozuvlar) ni to'plash va tizimlashtirishda yangi standartlar o'rnatdi. Uning "Rim Konstitutsiya huquqi" va "Rim tangachiligi" kabi asarlari hali ham o'z sohasida etalon hisoblanadi.

*Yogan Gustav Droyzen* (1808–1884). Ellinizm davri mutaxassisi. U "Hellenismus" atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. U, shuningdek, Rankening qat'iy obyektivligiga qarshi chiqib, tarixchi qayta tiklangan voqealar ma'nosini tushuntirishi ("Hermeneutika") kerakligini ta'kidladi.

*Genrix fon Zibe* (1817–1895): Muqaddas Rim imperiyasi tarixiga ixtisoslashgan sohada faoliyat olib bordi. Uning ishi milliy manfaatlar va tarixiy tadqiqot o'rtasidagi keskinlikni ko'rsatdi.

Ilmiy tarixshunoslik qator ijobiy ahamiyatga ham ega edi:

*Professionalizatsiya:* Tarixni amaliyotchilikdan akademik kasbga aylantirdi.

*Metodologik standart:* Manbalarni tanqidiy tahlil qilish bugungi kunga qadar har qanday tarixiy tadqiqotning asosi bo'lib qolmoqda.

*Arxivlarning ochilishi:* Davlatlar o'z arxivlarini tadqiqotchilar uchun ochishga majbur bo'lishdi.

*Tarixiy bilimning asosi:* Zamonaviy tarixiy bilim ushbu maktabning qat'iy talablari asosida qurildi.

Ilmiy tarixshunoslik oqibatida yuzaga kelgan ayrim kamchiliklar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

*Obyektivlik illuziyasi:* Zamonaviy tarixchilar (Karr, Elton) ta'kidlaganidek, to'liq obyektivlik mumkin emas. Tarixchi qaysi manbalarni tanlaydi, qanday savol beradi va qanday tushuntiradi – bularning barchasi uning shaxsiy qarashlari va zamonaviy kontekstiga bog'liq.

*Cheklanganlik:* Asosiy e'tibor siyosiy va diplomatik tarixga qaratilgan. iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki kundalik hayot tarixi deyarli e'tibordan chetda qolgan.

*"Buyuk kuchlar"ga qiziqish:* Ko'pincha davlatlar va ularning rahbarlarining tarixi bilan chegaralangan, oddiy xalqning o'rni kam.

*Milliy maqsadlar xizmatida:* Rankening g'oyalari milliy davlatni (ayniqsa, Bismark tomonidan birlashtirilgan Germaniyani) oqlash va uning kuchayishini asoslash uchun ishlatilgan.

Xulosa qilganda, nemis "Ilmiy tarixshunoslik" maktabi tarixni afsona va falsafadan ajratib, unga mustaqil fan maqomini berdi. Leopold fon Rankening "manbalarga qaytish" va ularni tanqidiy o'rganish g'oyasi tarixshunoslikning o'zgarmas temelidir. Garchi uning "obyektivlik" da'vosi va siyosiy tarixga qat'iy berilganligi zamonaviy tanqidga uchrasa-da, bugungi har qanday tarixchi uning yo'l ochgan metodologik

asoslarisiz ish ko'ra olmasdi. Bu maktab tarixni "fan qilish" ning boshlang'ich nuqtasi edi.

### **Pozitivizm**

Tarixshunoslikning pozitivizm maktabi o'ziga xos bo'lib, ma'lum muddat fan sohasi doirasida ustunlikka erishgan. Mazkur maktab vakillarining qarashlari asosiy tamoyillarda aks etganligi bilan ahamiyatli:

1. Tarixiy jarayonning obyektiv qonuniyatlari: pozitivistlar tarixni, fizika yoki biologiya kabi, o'zining qat'iy sabab-qonuniyatlariga ega bo'lgan soha deb hisoblashdi. Ularning maqsadi - tarixda umuminsoniy taraqqiyotning asosiy qonunlarini kashf etish edi. Ular tarixni ma'noli va yo'naltirilgan jarayon sifatida ko'rdilar.

2. Faktlarning mutlaq ustuvorligi. Pozitivistlar uchun tarix - bu "faktlar to'plami" edi. Ularning mashhur shiori: "Faktlar - bu hamma narsa". Tarixchining vazifasi - iloji boricha ko'proq faktlarni to'plash, ularni tasniflash va tahlil qilish edi. Fakt to'plansagina, tarix "o'z-o'zidan" paydo bo'ladi, deb ishonishgan.

3. Tabiiy fanlar usullaridan foydalanish. Pozitivistlar tarixda ham kuzatish, solishtirma tahlil va statistika kabi usullarni qo'llashni talab qilishdi. Ular tarixiy hodisalarni izohlashda determinizm (qonuniy belgilanganlik) g'oyasini qo'lladilar: ma'lum shartlar (iqtisodiy, geografik, irqiy) ma'lum natijalarni kelttiradi.

4. Taraqqiyot g'oyasiga ishonch. Pozitivistlar chiziqli taraqqiyot g'oyasiga qattiq ishonishgan. Ular insoniyatning ibtidoiy sivilizatsiyalardan zamonaviy sanoat jamiyatigacha bo'lgan yo'li qaytmas va progressiv jarayon deb hisoblashdi.

Pozitivizmning asoschisi fransuz faylasufi *Ogyust Kont* (1798-1857) hisoblanadi. U insoniyatning intellektual rivojlanish uch bosqichdan o'tishini ta'kidladi:

- Ilohiy bosqich: Hodisalarni xudolar va sehr orqali izohlash.
- Metafizik bosqich: Mavhum tushunchalar va kuchlar orqali izohlash.
- Pozitiv bosqich: Hodisalarni kuzatish, eksperiment va solishtirma usul orqali izohlash. Bu eng yuqori bosqich hisoblanadi.

O. Kontning asosiy asari "Pozitiv falsafa kursi" sanaladi. U yangi fan - sotsiologiyani yaratdi, uning vazifasi jamiyatning evolyutsiya qonunlarini o'rganishdir. Kontning fikricha, tarix - bu sotsiologik qonunlarni o'rganish uchun material hisoblanadi.

Yana bir yirik vakili *Ippolit Ten* (1828-1893). Asosiy asari: "Angliya adabiyoti tarixi", "Zamonaviy Fransiyaning kelib chiqishi". I. Ten tarixiy va madaniy hodisalarni uch omil orqali izohlashga harakat qildi:

- Irq (La race): Irsiy, biologik xususiyatlar.
- Muhit (Le milieu): Atrof-muhit, geografik va ijtimoiy shartlar.
- Davr (Le moment): Tarixiy vaqt.

Uning usuli juda qat'iy deterministik edi: "Axloq va adabiyot - bu shifobaxsh o'simliklar kabi, ularni yetishtirish uchun shart-sharoitlar yaratish kerak".

*Genri Tomas Bakl* (1821-1862) ham mazkur maktab vakili sanalib, "Angliya sivilizatsiyasi tarixi" asarini yozgan. T. Bakl tarixni tabiiy qonunlar bilan bog'lashga eng yaqin kelgan tarixchi edi. U ta'kidlaganidek, tarixni belgilovchi asosiy omillar - bu geografiya va iqlimdir. U statistik ma'lumotlardan keng foydalangan va aqliy taraqqiyot qonunlarini kashf etishga intilgan.

Pozitivist vakillari ichida *Ernst Leviss* va *Alfons Dopyui* ham bo'lib, ular Fransiyada keng qamrovli, ammo qat'iy faktologik asoslangan tarixiy qonuniyatlarni yaratdilar. Ularning ishi tarixni tizimli, darslik ko'rinishiga keltirishga xizmat qildi.

Pozitivizm tarixshunoslikda qator ijobiy xususiyatlarga ham ega bo'ldi:

*Tarix sohaning kengayishi:* Pozitivistlar nafaqat siyosat, balki iqtisodiyot, ijtimoiy tuzilmalar va madaniyatni ham o'rganish kerakligini ta'kidladilar.

*Statistik usullarning joriy etilishi:* Tarixda birinchi marta keng ko'lamli statistik ma'lumotlardan foydalana boshlandi.

*Ijtimoiy tarixning rivojlanishiga zamin:* Ijtimoiy va iqtisodiy omillarga qaratilgan e'tibor keyinchalik ijtimoiy tarixning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Tarixshunoslar tomonidan mazkur maktab vakillari yo‘l qo‘ygan bir nechta kamchiliklar ham ko‘rsatiladi:

*Mexanik determinizm:* Pozitivistlar tarixni haddan tashqari soddalashtirdilar, uni qat'iy sababiy bog'liqliklar tizimiga aylantirdilar. Bu insonning erkin irodasi, tasodif va individual omillarning rolini inkor etishga olib keldi.

*Faktolatriya (faktlarga bo'lish):* Faktlarning bema'ni to'planishi, ularning talqini va ma'nosini izlashning muhimligini chetga surdi. Tarix "faktlar qabristoniga" aylanish xavfi mavjud edi.

*G'ayritabiiy analogiya:* Tarixni tabiiy fanlar bilan solishtirish noto'g'ri edi. Tarixiy hodisalar laboratoriyada takrorlanmaydi va ular noyobdir.

*Yevropasentrizm:* Ularning "taraqqiyot" g'oyasi ko'pincha G'arb sivilizatsiyasini eng yuqori nuqta sifatida ko'rsatib, boshqa madaniyatlarni "ibtidoiy" yoki "rivojlanayotgan" deb baholagan.

Shu o‘rinda pozitivizm va nemis "Ilmiy maktabi" o‘rtasidagi mavjud farqlarni o‘rganib, ularni adashtirib yubormaslik kerak.

Nemis ilmiy maktabi (Ranke)ning maqsadi - har bir davrning individual va noyob mohiyatini tushunish. Usul esa - manbalarning tanqidiy tahlili.

Pozitivizm (Kont, Ten)ning maqsadi barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan qonunlarni kashf etish. Usuli esa - solishtirma va umumlashtirish.

Shuni alohida qayd etish kerakki, har ikki maktab vakillari qo‘llagan usul bugungi kun tarixshunosligida keng foydalanib kelinayotgan usullardan sanaladi.

Xulosa o‘rnida: Pozitivist tarixshunoslik tarixni tizimli, ilmiy asoslangan va progressiv jarayon sifatida ko'rishga urindi. U tarixda yangi mavzular va statistik usullarni joriy etish orqali sohani sezilarli darajada boyitdi. Biroq, uning qat'iy determinizmi va faktlarga bo'lgan haddan tashqari ishonchi XX asrda kuchli tanqidga uchradi. Dastlab, annales maktabi tarixni faqat siyosat va urushlar bilan chegaralagani uchun, keyinroq postmodernizm esa uning obyektiv haqiqatni kashf etish mumkin degan da'vosini rad etdi. Shunga qaramay, pozitivizmning

empirik va tizimli yondashuvi bugungi kunda ham ko'plab tarixchilar uchun muhim qolmoqda.

### **Milliy tarixshunoslik**

XIX asrda Yevropa va butun dunyoda shakllangan eng kuchli va ta'sirli tarixiy oqimlardan biridir. Uning asosiy vazifasi milliy davlatning shakllanishi va mustahkamlanishini tarixiy jihatdan asoslash va millatning o'zligini (identity) shakllantirish edi.

Milliy tarixshunoslikning yuzaga kelishi XIX asrning ikkita kuchli jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan:

- 1) Fransuz inqilobi: inqilob "xalq egemenligi" g'oyasini ilgari surdi, bu esa "xalq" kimligi va uning tarixiy huquqlari qandayligi haqidagi savollarni keltirib chiqardi.
- 2) Milliy davlatlarning shakllanishi: XIX asr Italiya va Germaniyaning birlashishi, shuningdek, Usmonli va Avstriya-Vengriya imperiyalari ta'siridagi xalqlarning milliy ozodlik harakatlari davri edi. Tarix bu kurashlarning asosi va quroliga aylandi.

Bu jarayonlarda tarixchilar o'z xalqining qadimgi kelib chiqishi, mo'jaz tarixiy huquqlari va birlik istagini isbotlashga xizmat qiladigan tarixiy hikoyalar yaratishga kirishdilar.

Milliy tarixshunoslikning asosiy xususiyatlari

1. Milliy davlat - tarixiy jarayonning markaziy qahramoni. Tarixning asosiy subyekti va birligi sifatida milliy davlat ko'riladi. Barcha tarixiy hodisalar milliy davlatning shakllanishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan talqin qilinadi.
2. "Millat"ning qadimiyligini davrini izlash. Milliy tarixchilar o'z millatlarini qadimgi qabilalar (masalan, german qabilalari, slavyan qabilalari) bilan bog'lashga va ularning zamonaviy davlatga bo'lgan uzluksiz tarixiy davomiyligini isbotlashga harakat qilishgan.
3. Birlashtiruvchi hikoya (master narrative) yaratish. Tarix xalqni birlashtiruvchi, qahramonlik va qurbonliklar bilan to'la epik hikoya shaklida taqdim etiladi. Bu hikoyaning asosiy mavzulari: tashqi tahdidlar (bosqinchilar, dushmanlar), ichki kurashlar (birlik uchun kurash) va qahramonlik (milliy qahramonlar)dir.

4. "Oltin asr" va "tanazzul" mafkurasi. U quyidagicha ko‘rinishga ega:
  - ✓ Qadimgi "oltin asr" (kuch, poklik, erkinlik davri).
  - ✓ Uzoq davom etgan tanazzul (chet el zulmi yoki ichki parchalanish davri).
  - ✓ Uyg'onish va yangilanish (milliy ongning uyg'onishi va zamonaviy milliy davlatning tiklanishi).
5. "Boshqa"ning yaratilishi. Milliy o'zligini shakllantirish ko'pincha dushman obrazini yaratishni talab qiladi. Tarixiy dushman (masalan, fransuzlar uchun inglizlar, nemislar uchun fransuzlar, polyaklar uchun ruslar va nemislar) milliy birlikni mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.
6. Vatan va milliy qahramonlarga murojaat. Vatan (Motherland/Fatherland) muqaddas tushuncha sifatida ulug'lanadi. Milliy qahramonlar (shohlar, sardorlar, davlat arboblari) tarixning drayverlari sifatida ko'riladi. Ularning hayoti va qarorlari butun xalqning taqdirini belgilab bergan deb ta'kidlanadi.

Mazkur yo‘nalishning asosiy vakillarini ko‘plab Yevropa mamlakatlarida ko‘rish mumkin edi. Har bir mamlakatda o'zining milliy tarixshunoslik maktabi rivojlandi:

1. Germaniyada:

*Leopold fon Ranke*. Garchi u ilmiy metodga asoslangan bo'lsa-da, uning nemis davlatchiligi haqidagi qarashlari nemis milliy tarixshunosligiga ta'sir ko'rsatdi.

*Genrix fon Trechke* (1834–1896). Nemis millatchiligining eng ashaddiy tarafdori. Uning "XIX asrda nemis tarixi" asari Prussiyani ulug'lab, kuchli milliy davlat g'oyasini targ'ib qildi. U yahudiylarga qarshi va qudratli Germaniya g'oyasini ilgari surdi.

2. Fransiyada:

*Jyul Mischele* (1798–1874). Uning "Fransiya tarixi" asari fransuz xalqini tarixning asosiy qahramoniga aylantirdi. U Fransiyaning "ozodlikning vatani" deb e'lon qildi va fransuz milliy o'zligining demokratik va inqilobiy modelini shakllantirdi.

*Ernest Laviss* (1842–1922). Uning darsliklari va "Fransiya tarixi" asari Uchinchi Respublika maktablarida fransuz milliy tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

### 3. AQShda:

*Jorj Bansroft* (1800–1891). "Amerika tarixining otasi". Uning 10 jildlik "AQSh tarixi" asari Amerikaning demokratik va erkinliksevarligini ilohiy taqdir (Manifest Destiny) sifatida ko'rsatdi. Uning ishi AQSh milliy afsonasining asosini yaratdi.

### 4. Polshada.

Polsha tarixchilari (masalan, Yoaxim Lelevel) Polshaning uch marta bo'linishi va uni qayta tiklash uchun kurashni o'z ishlarining markaziga qo'ydilar. Ularning ishi Polsha milliy o'zligini saqlab qolishga xizmat qildi.

### 5. Italiyada:

Italiya tarixchilari (masalan, Jyuzeppe Mazzini va Jyuzeppe Garibaldi haqida yozganlar) Risorgimento (Italiyaning qayta tug'ilishi va birlashishi) harakatini epik hikoya qilib qo'ydilar.

Milliy tarixshunoslikning qator ijobiy ta'sirlari (o'sha davr uchun):  
*Milliy o'zlikni shakllantirish:* yangi paydo bo'lgan milliy davlatlarga legitimlik va birlik tuyg'usini berdi.

*Tarixni demokratizatsiyasi:* tarix endi faqat shohlar va zodagonlar emas, balki butun xalqning tarixiga aylandi.

*Milliy ozodlik harakatlarini rag'batlantirish:* bosqinchilik ostidagi xalqlar (masalan, polyaklar, finlar) o'z tarixlarini o'rganish orqali ozodlik kurashida manaviy kuch topdilar.

Milliy tarixshunoslik o'z davrida ham bir qancha tanqidga uchradi.  
*Tarixni burish va anaxronizm:* ko'pincha o'tmishdagi voqealar zamonaviy milliy chegaralar va qadriyatlar nuqtai nazaridan talqin qilindi. Milliy manfaatlar uchun tarixiy haqiqat ataylab o'zgartirildi.

*Millatchilik va irqchilikning oqilonalashtirilishi:* milliy tarixshunoslik o'z millatining ustunligi g'oyasini targ'ib qilib, boshqa xalqlarni kamsitishga asos yaratdi. Bu XX asrdagi dahshatli urushlar va qirg'inlarning intellektual poydevorlaridan biriga aylandi.

*Dushmanlikni kuchaytirish:* qo'shni xalqlar o'rtasida asrlik dushmanlikni kuchaytirib, mintaqaviy nizolarni chuqurlashtirdi.

*Ichki geterogenlikni yashirish:* milliy birlik g'oyasi millat ichidagi etnik, mintaqaviy va ijtimoiy guruhlarining o'ziga xosligi va qarama-qarshiliklarini yashirishga xizmat qildi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globalizatsiya va postmillatchilik davrida milliy tarixshunoslik kuchli tanqidga uchradi. Postmodern tarixchilar milliy hikoyalarning qurilgan va sub'ektiv tabiatini ochib berishdi. Dunyo tarixi va transmilliy tarix kabi yangi yo'nalishlar milliy chegaralardan tashqariga chiqishga urinmoqda. Biroq, milliy tarixshunoslik butunlay yo'q bo'lib ketgani yo'q. U hali ham ko'plab mamlakatlarda maktab darsliklarida, siyosiy nutqlarda va ommaviy madaniyatda hukmronlik qilmoqda. Zamonaviy tarixchi bu an'anani tan olish, uning ta'sirini tushunish va uni tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish majburiyatini anglatadi.

Xulosa tariqasida, milliy tarixshunoslik - bu kuchli ikki qirrali qurol bo'lib, bir tomondan milliy davlatlarni qurishga, ikkinchi tomondan tarixiy haqiqatni buzishga va xalqlar o'rtasidagi nizolarni kuchaytirishga xizmat qilgan. Uning murakkab merosini tushunish - nafaqat o'tmishni, balki zamonaviy siyosat va milliy o'zlik tuyg'usini ham anglash uchun zarurdir.

### **3-§ XX ASR XORIJ TARIXSHUNOSLIGI**

#### **Reja:**

1. Sotsial-iqtisodiy tarix va "Annal maktabi"
2. Marksistik tarixshunoslik
3. AQShda progressiv va yangi chap tarixshunoslik
4. Postmodernizm va "lingvistik burilish"
5. Global va transmilliy tarixshunoslik.

XX asr xorij davlatlari tarixshunosligi o'ziga xos usulda XIX asrda shakllangan ayrim qarashlarni rivojlantirgan holda yuzaga keldi. Fandagi bu jarayonni yanada yorqinroq tasavvur qilish uchun quyidagi

XIX va XX asrlar tarixshunosligining asosiy farqlari aks etgan jadvaldan ham ko‘rish mumkin (5-jadval).

Xususiyat	XIX Asr	XX Asr
Markaziy ob'ekt	Siyosiy voqealar, buyuk shaxslar, milliy davlat	Ijtimoiy tuzilmalar, madaniyat, iqtisodiyot, oddiy odamlar
Asosiy usul	Manbashunoslik, hujjatli isbot	Fanlararo yondashuv, raqamli usullar, kvantitativ tahlil
Falsafiy asos	Ob'ektivlik, progress	Relativizm, ko'p qirralilik
Asosiy yo'nalish	Milliy tarixshunoslik	Qiyosiy tarix, global tarix, ijtimoiy tarix, madaniyat tarixi

XX asrda fransuz "Annal" maktabi tarixshunoslikda haqiqiy inqilob amalga oshirdi va butun dunyo tarixchilariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu maktab an'anaviy siyosiy-harakatli tarixni rad etib, uning o'rniga jamiyatning barcha jabhalarini o'rganishga intildi.

**"Annal" maktabining rivojlanish bosqichlari:**

*1. Birinchi avlod:* asoschilar va inqilob (1929-1945-yillar) davri.

Asoschilari sifatida Mark Blok (1886-1944) va Lyusyen Fevr (1878-1956) ko'rsatish mumkin. 1929-yilda ular "Annales" ("Annales d'histoire économique et sociale ("Iqtisodiy va ijtimoiy tarix yilnomalari")) jurnaliga asos soldilar. Bu esa ularning manifestiga aylandi.

Ularning asosiy g'oyasini tarixchining vazifasi nafaqat qirollar va urushlar haqida hikoya qilish, balki "yaxlit tarix" (histoire totale)ni yaratishdir – ya'ni inson jamiyatining barcha jihatlarini (iqtisodiyot, jamiyat, madaniyat, geografiya, iqlim) o'rganish tashkil etgan.

Asosiy tamoyillari:

- Problem tarixga o'tish: an'anaviy hikoya qilish o'rniga, tarixchi o'ziga aniq savol ("muammo") beradi va shu savolga javob topish uchun barcha turdagi dalillardan foydalanadi.

- Fanlararo yondashuv: tarixni geografiya, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya va antropologiya kabi fanlarsiz tushunib bo'lmasligini ta'kidladilar.

- Qarama-qarshi tarix: siyosiy voqealarga emas, balki sekin o'zgaruvchi, qiyosiy tuzilmalarga (conjunctures) e'tibor qaratish.

2. *Ikkinchi avlod*: tizimlashtirish va "uzoq davomiylik" (1945-1970-yillar) davri. Bu maktabning eng mashhur va ta'sirchan davri bo'ldi. Bunga Ferdinand Broyel (1902-1985) rahbarlik qildi. F. Broyel tarixni uch qatlamli deb ta'rifladi:

- Voqealar tarixi (Histoire événementielle): siyosiy voqealar – shamoldek tez o'tib ketadigan sath.

- Konyukturalar tarixi (Histoire conjoncturelle): iqtisodiy sikllar, jamiyatdagi o'zgarishlar – o'nlab yillar davom etadigan o'rta sath.

- Uzoq davomiylik (Longue Durée): geografik muhit, madaniyat, mentalitet – asrlar davomida deyarli o'zgarmaydigan chuqur tuzilma.

Broyelning fikricha, haqiqiy tarixchi eng chuqur, sekin o'zgaruvchi "uzoq davomiylik" qatlamini o'rganishi kerak. Uning "O'rtayer dengizi..." asari ushbu nazariyani amalda qo'lladi, O'rtayer dengizi mintaqasini geografiya, iqlim va aloqa yo'llari nuqtai nazaridan tahlil qildi.

3. *Uchinchi Avlod*: "Mentalitetlar Tarixi" (1970-yillardan keyin). Bu avlod "yaxlit tarix" g'oyasidan voz kechib, madaniyat va "mentalitetlar"ni o'rganishga o'tdi. Aqliyat tarixi (Histoire des mentalités) – o'tmishdagi odamlarning dunyoqarashi, qo'rquvlari, e'tiqodlari va his-tuyg'ularini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi. Bu avlodning yetakchi vakillari:

- Jorj Duby – o'rta asrlar jamiyati va undagi nikoh haqidagi tasavvurlarni o'rgandi.

- Jak Le Gof esa o'rta asrlar madaniyati va aqliyatini o'rgandi.

- Emanuel Le Rua Laduri – “Montayu” romanida kichik qishloq jamiyatining mentalitetini chuqur o'rgangan.

Maktab vakillarining umumiy qarashlarini quyidagi jadvaldan ham ko‘rishimiz mumkin (6-jadval):

<b>Qarashlari</b>	<b>Tavsifi</b>	<b>Ta’siri</b>
<b>"Pastdan yuqoriga" tarix</b>	<b>Oddiy odamlarning hayoti, dehqonlar, hunarmandlar tarixini o'rgandi.</b>	<b>"Yangi ijtimoiy tarix" va "Yangi madaniy tarix"ning paydo bo'lishiga olib keldi.</b>
<b>Fanlararo yondashuv</b>	<b>Tarixni boshqa fanlar bilan bog'ladi.</b>	<b>Antropologik, demografik va iqtisodiy usullardan keng foydalanishga yo'l ochdi.</b>
<b>Raqamli tarix (<i>Histoire sérielle</i>)</b>	<b>Uzoq muddatli raqamli ma'lumotlarni (narxlar, aholi soni) tahlil qilish.</b>	<b>Kvantitativ usullarni tarixshunoslikka kiritdi.</b>
<b>Mentalitetlar tarixi</b>	<b>Kollektiv psixologiya va madaniyati qadrlashtirdi</b>	<b>Tarixning subyektiv tomonini ochib berdi, mikro tarixga yo'l ochdi</b>

"Annal" maktabi, ayniqsa uchinchi avlodi, ba'zi tanqidlarga uchradi, ya'ni:

- "Yaxlit tarix"ga amalda erishib bo'lmasligi: jamiyatning barcha jihatlarini qamrab olish juda murakkab.
- Siyosatning yo'qolishi: siyosiy hokimiyat va qarorlar qabul qilish jarayonlariga etarlicha e'tibor berilmadi.
- Hikoya qilishning yo'qolishi: ba'zi asarlar juda quruq va tahliliy bo'lib, keng o'quvchilar tomonidan qiyin o'qiladi.

Bugungi kunga qadar "Annal" maktabi XX asr tarixshunosligida hukm surgan eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. U tarixchilarga yangi savollar berishga, yangi manbalardan foydalanishga va tarixni tushunishning yangi usullarini topishga yordam berdi. Uning merosi – ijtimoiy tarix, madaniyat tarixi, mikro tarix va global tarix – bugungi kunda ham butun dunyo tarixchilariga ilhom va vositalar berib kelishi bilan ahamiyatlidir.

### **Marksistik tarixshunoslik**

Karl Marks va Fridrix Engelsning g'oyalari asosida shakllangan, butun dunyo tarixshunosligiga chuqur ta'sir ko'rsatgan eng muhim yo'nalishlardan biridir. Marksistik tarixshunoslikning asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:

- Marksistik tarixshunoslikning negizi tarixiy materializm nazariyasida yotadi. Ya'ni, iqtisodiy asos ustunlik qiladi. Jamiyatning rivojlanishi va o'zgarishi, nihoyat, ishlab chiqarish kuchlari (mehnat qurollari, texnologiya, ko'nikmalar) va ishlab chiqarish munosabatlari (mulkiy munosabatlar, sinfiy tuzilma) o'rtasidagi ziddiyat tomonidan belgilanadi.
- Bazis va ustki qurilma. Bazis - iqtisodiy asos (ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari). Ustki qurilma - huquq, siyosat, din, falsafa, san'at. Bazis ustki qurilmani shakllantiradi.
- Sinfiy kurash - tarixning asosiy dvigateli. Marksning so'zlari bilan aytganda, "hozirgacha mavjud bo'lgan barcha jamiyatlar tarixi sinfiy kurashlar tarixidir". Qul egasi va qul, feodal va serf, burjuaziya va proletariat o'rtasidagi kurash jamiyatni rivojlantiradi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy formatlar. Insoniyat tarixi ishlab chiqarish usuliga qarab beshta bosqichdan (formatsiyadan) o'tadi: Ilk xilma-xil jamiyat, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm (sotsializm uning birinchi bosqichi).

Marksistik tarixshunoslikning rivojlanishi va yo'nalishlari sifatida qator guruhlarni ko'rsatish mumkin.

1. Klassik marksizm (XIX asr oxiri). Marks va Engelsning o'zlari faoliyat olib borgan davr. Ular keng qamrovli tarixiy tahlillarni yaratdilar (masalan, "Fransiyada sinfiy kurashlar", "Kapital"). Asosiy

e'tibor fransuz inqilobini talqin qilishga qaratildi. Buni feodalizmni ag'darib, kapitalizm yo'lini ochgan burjuaziya inqilobi sifatida ko'rdilar.

2. Sovet (Stalincha) marksizmi (XX asr). Qat'iy dogmatizatsiya davri sanaladi. Tarixshunoslik KPSSning rasmiy ideologiyasiga bo'ysundirildi. "KPSS tarixining qisqa kursi" asari tarixni talqin qilishning yagona namunasi va dasturiga aylandi. O'ziga xos xususiyatlari:

- Ijobiy qahramonlar (xalq qo'mitalari, ishchilar, progressiv shaxslar) va salbiy qahramonlar (podshohlar, burjuaziya) mavjudligi.
- Ijtimoiy progress g'oyasiga qat'iy ishonish.
- Besh bosqichli sxemaga muvofiq rioya qilish (buni rad etish "xalq dushmani" deb hisoblanishi mumkin edi).
- Xalqlarning mustamlakachilikka qarshi ozodlik kurashi g'oyalari targ'ib qilindi.

3. G'arb marksizmi (XX asr). Bu marksistik g'oyalardan ilhomlangan, lekin sovet dogmasidan uzoq bo'lgan tarixchilar guruhidir. Ular marksizmni ijodiy va tanqidiy rivojlantirdilar. Xususan, Britaniya kommunistik partiyasi tarixchilar guruhi bo'lib, uning yetkachi vakillarini Kristofer Hill, Erik Hobsbom, Edvard Tompsonlar tashkil etgan. Ular tarixni "pastdan yuqoriga qarab" yozish, ya'ni oddiy odamlar - ishchilar, dehqonlar, hunarmandlarning tajribasini o'rganishni maqsad qilgan.

Mashhur asarlari:

*E. P. Tompson*, "Ingliz ishchilar sinfining paydo bo'lishi" - sinfni nafaqat iqtisodiy, balki madaniy hodisa sifatida ko'rib, marksistik tarixshunoslikka yangi nafas kiritdi.

*Erik Hobsbom*, "Inqilob davri", "Kapital davri", "Imperiya davri" - "uzoq XIX asr"ni o'rgandi.

*Kristofer Hill*, "Dunyo o'zgartirilgan" asarida - Angliya inqilobini radikal xalq harakatlari nuqtai nazaridan talqin qildi.

Frankfurt maktabi vakili *Antonio Gramshining* "madaniy ustunlik" (hegemony) tushunchasi tarixchilarga hokimiyat nafaqat zo'rlik, balki

madaniyat va ideologiya orqali qanday amalga oshirilishini tushunishga yordam berdi.

Marksizmning tarixshunoslikdagi asosiy o'rni:

- Iqtisodiy va ijtimoiy tarixni rivojlantirdi. Tarixni qirollar va urushlar darajasidan kengroq ijtimoiy-iqtisodiy kontekstga olib chiqdi.
- "Pastdan tarix"ga yo'l ochdi. Oddiy xalqning tarixdagi rolini ta'kidladi.
- Tizimli tahlilni taklif qildi. Tarixiy jarayonlarni tizimli va nazariy asosda tushunishga yordam berdi.
- Mustamlakachilik va global tarixga ta'sir. Mustamlakachilik tizimining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynadi.

Mazkur maktab vakillari qator tanqidlarga ham uchradi:

- Iqtisodiy determinizm. Barcha tarixiy o'zgarishlarni faqat iqtisodiy omillar bilan izohlash, madaniyat, din, shaxsiyat kabi omillarning ahamiyatini kam baholash.
- Dogmatiklik xavfi (ayniqsa sovet modelida). Tarixni oldindan belgilangan sxemaga muvofiq "qisqartirish" xavfi mavjud.
- Progressga bo'lgan ishonch ko'pincha optimistic shaklda. Tarixning muqarrar ravishda progress sari harakatlanishi g'oyasi murakkab va orqaga qaytishli tarixiy jarayonlarni to'liq izohlash qiyin.
- Jamiyatdagi sinflarga haddan tashqari e'tibor. Barcha ijtimoiy ziddiyatlarni faqat sinfiy kurashlar keltirib chiqargan degan qarashning ustunligi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, bugungi qadar marksistik tarixshunoslikning ayrim jihatlari tarixni tushunishning muhim vositasi bo'lib qolmoqda. U g'arbda, ayniqsa, an'anaviy marksizmning qat'iy iqtisodiy determinizmidan uzoqlashgan, madaniyat va diskursni o'z ichiga olgan yangi marksizm shaklida rivojlandi. Uning merosi, xususan, ijtimoiy tarix, ishchilar sinfi tarixi va global tengsizliklar tarixi kabi sohalarda bugungi kunda ham ko'plab tarixchilar tomonidan, hatto o'zlari marksist deb atamasalar ham, qo'llanilmoqda.

## **Progressiv va yangi “chap” tarixshunoslik**

XX asrda an'anaviy Amerika tarixiga qarshi chiqqan va uni tubdan o'zgartirgan ikkita muhim harakat bo'ldi. Ular tarixni kuch va manfaatlar kurashi sifatida ko'rishgan va "pastdan yuqoriga" qarab yozishga intilishgan.

Ulardan birinchisi progressiv tarixshunoslik (1900-1940-yillar). Bu maktab Amerika tarixshunosligida birinchi marta keng ko'lamli tanqidiy va ilmiy yondashuvni namoyish etdi. Uning asosiy xususiyatlari:

- Tarixiy konflikt markazida progressivlar Amerika tarixini "xalq" (fermerlar, ishchilar, oddiy odamlar) va "elita" (sanoat magnatlari, moliyachilar, siyosatchilar) o'rtasidagi doimiy kurash sifatida ko'rdilar.
- Iqtisodiy determinizm. Ular siyosat va g'oyalarning ko'pini asosan iqtisodiy manfaatlar va moliyavigi qarashlar bilan izohlashga harakat qilishdi.
- Hozirgi zamonga qaratilganlik. Ular o'tmishni o'rganish orqali zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'llarini topishga intilishdi.

Mazkur maktabning asosiy vakillari va ularning qarashlari:

*Frederik Jekson Tyorner* (1861-1932) bo'lib, uning "Chegara (frontir) nazariyasi" fanga yangilik bo'lib kirdi. Unga ko'ra, Amerikaning demokratik va individualistik xarakteri G'arbdagi bo'sh yerlar bilan chegarada shakllangan. U tarixchilarning e'tiborini Sharqiy qirg'oqdagi siyosiy voqealardan butun mamlakatni shakllantirgan mintaqaviy va ijtimoiy-iqtisodiy kuchlarga qaratdi.

*Charlz Bird* (1874-1948) "Iqtisodiy determinizm" tarafdori. Uning asosiy qarashi me'yoriy hujjatlarga qaratilib, uningcha, Amerika Konstitutsiyasi xususiy moliyaviy va mulkiy manfaatlar tomonidan tuzilgan hujjatdir. Muallifning mashhur asari "Amerika Konstitutsiyasining iqtisodiy tafsiri" (1913) deb nomlanib - Konstitutsiyani "oliy qonun" emas, balki ma'lum bir vaqtdagi iqtisodiy kuchlarning mahsuli sifatida ko'radi.

*Fon R. Xarrington* (1891-1980) ham mazkur maktabning asosiy vakillaridan bo'lib, uning asosiy g'oyasi Amerika tarixidagi asosiy

kelishmovchilik Shimol va Janub o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy kurash ekanligi deb hisoblashdan iborat bo'lgan.

### **Yangi chap tarixshunoslik (1960-1970-yillar)**

Yangi chap tarixshunosligi progressivlarning "kelishmovchilik" g'oyasini qabul qildi, lekin uning "elita"ga qarshi "xalq"ning birligi g'oyasini rad etdi. Ular o'zlarini 1960-yillarning fuqarolik huquqlari harakati, Vyetnam urushiga qarshi harakat va kontrmadaniyat bilan bog'ladilar. Mazkur yo'nalish vakillarining asosiy g'oyalari:

*"Pastdan yuqoriga" tarix.* Ular tarixni hokimiyat tepasida turganlarning nuqtai nazaridan emas, balki oddiy odamlarning tajribasi orqali ko'rishga intilishdi.

*Kengaytirilgan "xalq" tushunchasi.* Ular progressivlarning "xalq" tushunchasini kengaytirib, qullar, ayollar, immigranlar, mahalliy amerikaliklar va boshqa chetlashtirilgan guruhlarni o'z ichiga oldi.

*Madaniy va subyektiv omillarga e'tibor.* Nafaqat iqtisodiy, balki madaniyat, irq, jins va psixologiya kabi omillarning tarixga ta'sirini o'rganishdi.

*An'anaviy tarixshunoslikni rad etish.* Ular an'anaviy tarixni hokimiyatni oqlash va status-kvoni saqlash vositasi deb hisoblashdi.

Mazkur maktabning asosiy vakillari va ularning yo'nalishlari:

1) Qullik va irq masalasida. Stenli M. Elkins: "Qullik" (1959) asarida qullik tizimi qullarning psixologiyasiga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rgandi;

Yujin Jenovese: "Qullarning qo'zg'oloni" kabi asarlarida qullik tizimini va qullarning o'z huquqlari uchun kurashini murakkab iqtisodiy va madaniy hodisa sifatida tahlil qildi.

2) Ishchilar sinfi va oddiy odamlar tarixi. Herbert Gutman: Amerika ishchilar sinfining madaniyati, oilasi va jamoa hayotini o'rgandi;

Govard Zinn: "AQSH xalq tarixi" (1980) - bu yangi chap tarixshunosligining manifesti bo'lib, butun Amerika tarixini hokimiyatga qarshi kurash va chetlashtirilgan guruhlarning istaklari nuqtai nazaridan qayta hikoya qiladi;

Jesse Lemish kabi tarixchilar Amerika inqilobini oddiy odamlar - fermerlar, hunarmandlar va ishchilar nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqdilar.

3) Meros va uning ta'siri. Progressivlar Amerika tarixshunosligini milliy afsonalardan ilmiy va tanqidiy sohaga aylantirishga hissa qo'shdilar. Yangi chap vakillari esa tarixning obyekt va mavzularini sezilarli darajada kengaytirdi. Uning "pastdan yuqoriga" yondashuvi ijtimoiy tarix, madaniyat tarixi, qullik tarixi, ayollar tarixi va etnik tadqiqotlar kabi yangi sohalarning rivojlanishiga asos bo'ldi.

Har ikkala maktab ham zamonaviy amerikalik tarixchilarga Amerika tarixining qiyin, qarama-qarshi va ko'p qirrali ekanligini o'rganish uchun muhim asboblari va istiqbollarni taqdim etdi.

Xulosa qilib aytganda, progressiv va yangi chap tarixshunosligi Amerika tarixini tushunishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Agar progressivlar tarixda kelishmovchiliklar mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa, yangi chap tarixchilar bu kelishmovchilikning qanchalik chuqur va ko'p qirrali ekanligini ochib berishdi.

### **Postmodernizm**

Postmodernizm mazmun-mohiyatini mazkur maktab vakillari ilgari surgan asosiy g'oyalarida ko'rishimiz mumkin:

- Haqiqatni aytib bo'lmaydi. Obyektiv "o'tmish" mavjud emas. Bizda faqat uning talqinlari va "hikoyalari" mavjud.
- Til "haqiqatni" ayto olmaydi. Til - bu shaffof vosita emas, balki tizim. U dunyoni qanday ko'rishimizni o'zi belgilaydi. Tarixchi hech qachon o'tmishni "aynan qanday bo'lganligini" ayto olmaydi.
- Har qanday matn subyektiv. Tarixiy matn ham adabiy asar kabi til vositalaridan (metafora, ironiya, syujet) foydalanadi. Bu uni muallifning dunyoqarashi va madaniy kontekstiga bog'liq qiladi.
- Hokimiyat va bilim bog'liq. Bilim hokimiyat bilan chambarchas bog'liq. Qaysi hikoya (masalan, g'oliblar yoki mag'lublarniki) kuchliroq ekanligi, uning "haqiqiyliги"ga emas, balki ijtimoiy hokimiyatga bog'liq.

Postmodernizmning asosiy vakillari sifatida qator olimlarni ko'rsatish mumkin. Yoqin vakillardan biri Hayden White (1928-2018).

White "lingvistik burilish"ning tarixshunoslikdagi asoschisi hisoblanadi. Uning "Metatarix" (1973) asari inqilobiy xususiyatga ega edi. Uning asosiy g'oyasi tarixiy hikoya adabiy mahsulotdir. Olim tarixchilarning o'tmish haqidagi ma'lumotlarni tashkil qilishda 4 ta asosiy adabiy usuldan foydalanishini ta'kidladi:

Metafora (o'xshashlik)

Metonimiya (qisqartirish)

Sinekdoxa (butunni qism orqali ifodalash)

Ironiya (teskari ma'no)

Masalan: tarixchi voqealarni tanlaydi -> Ularni ma'noli ketma-ketlikka joylashtiradi -> Ma'lum bir adabiy usuldan foydalanib, ularga ma'no beradi -> Muayyan adabiy janr (komediya, tragediya, satira, romantika) shaklida hikoya qiladi.

Yo'nalishning yana bir vakili Michel Foucault (1926-1984). Foucaultning fandagi ta'siri beqiyos. U tarixni emas, balki "bilimlar arxeologiyasi" va "genealogiyasi"ni o'rgandi. Har bir davrning o'ziga xos "haqiqat so'zlari" (discourse) mavjud. Bu so'z har qanday g'oyalarning "ahamiyatli" va "ahamiyatsiz" deb hisoblanishini belgilaydi.

Jacques Derrida (1930-2004)ning "dekonstruksiya" usuli postmodernizmga tanqidning asosiy vositasi bo'ldi. Unga ko'ra, har qanday matnni o'qishda uning ichki qarama-qarshiliklari, chiqarib tashlangan qismlari va yashirilgan ma'nolarini izlash kerak. Olimning fikricha, "Matndan tashqari hech narsa yo'q"; biz faqat matnga ega bo'lamiz, uning ortidagi "haqiqiy niyat" yoki "haqiqiy voqea"ga emas.

Postmodernizm ham an'anaviy tarixchilar tomonidan jiddiy tanqidlarga uchradi:

Tarix fani o'ziga xosligini yo'qotishi. Agar tarix ham adabiyot bo'lsa, unda uning haqiqatni aniqlashdagi ahamiyati yo'qoladi.

Amaliy yordam berolmasligi jihatdan tarixchiga arxivda qanday ishlash kerakligini aytmaydi.

O'z-o'ziga qarshi chiqish. "Bitta haqiqat yo'q" degan da'voning o'zi ham bitta haqiqat da'vosidir.

Garchi bahsli bo'lsa-da, postmodernizm tarixshunoslikka muayyan ijobiy o'zgarishlar kiritdi:

O'z-o'zini anglash. Tarixchilarni o'zlarining nuqtai nazari, til tanlovi va jamiyatdagi o'rnini tanqidiy o'rganishga undadi.

Kengaygan mavzular. Hokimiyat, madaniyat, identifikatsiya kabi mavzular diqqat markaziga keldi.

Yangicha manbalar. Romanlar, rasmlar, kundaliklar kabi "an'anaviy bo'lmagan" manbalarga qiziqish oshdi.

Hikoya qilish uslubiga e'tibor. Tarixiy asarlarning adabiy jihatlari chuqurroq tahlil qilina boshlandi.

Aytish mumkinki, postmodernizm va "lingvistik burilish" tarixchiga: "Siz nima qilyapsiz? Sizing so'zlaringiz qanday ishlaydi? Sizing hikoyangiz boshqa hikoyalardan qanday farq qiladi?" degan noqulay savollarni berdi. Bu tarixshunoslikni qiyinlashtirdi, lekin bir vaqtning o'zida uni boyitdi va chuqurlashtirdi. Bugungi kunda ko'p tarixchilar to'liq postmodernist bo'lmasa-da, ularning ko'pchiligi tilning kuchi va hikoya qilishning murakkabligi haqida o'rganganlarini tan olishadi.

### **Global va transmilliy tarixshunoslik**

So'nggi yillarda juda rivojlanib, an'anaviy milliy tarixshunoslikning cheklovlaridan chiqib, tarixiy tadqiqotlarning yangi yo'nalishlarini ochdi. Quyida ushbu ikkita bog'liq, lekin farqli yo'nalishning asosiy tamoyillari, metodologiyasi va ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

**Global tarixshunoslik** (Global history) – global tarix kengroq miqyosli yondashuv bo'lib, butun dunyo miqyosidagi jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Uning asosiy maqsadi butun insoniyat tarixini yagona tizim sifatida tushunishdan iborat. O'ziga xos xususiyatlari:

- ✓ Dunyo miqyosidagi jarayonlar. Aholi oqimi, tovar ayirboshlash, madaniyatlar almashinuvi, imperiyalar tarixi kabi global hodisalarni markazga qo'yadi.
- ✓ Qiyosiy tahli. Turli madaniyatlar va mintaqalarning rivojlanish yo'llarini solishtiradi.

- ✓ Uzoq davomiylik. O'nlab, yuzlab yillik tarixiy jarayonlarni o'rganadi.
- ✓ Aloqadorlik va integratsiya. Dunyoning turli qismlari qanday qilib o'zaro bog'langanligini ko'rsatadi.

Global tarixshunoslikning asosiy yo'nalishlari:

1. Ekologik tarix. Vilyam Maknill "Kuchlar va tovar almashinuvi" kabi asarida ekologik omillarning global tarixga ta'sirini o'rgangan.
2. Iqtisodiy global tarix. Kennet Pomeranz "Buyuk ayriliq" asarida Yevropa va Osiyo iqtisodiy taraqqiyotidagi farqlarni tahlil qilgan.
3. Madaniy global tarix esa dinlar, tillar, g'oyalarning tarqalishi va o'zaro ta'sirini o'rganadi.

**Transmilliy tarixshunoslik** (Transnational history) – transmilliy tarix milliy chegaralardan tashqariga chiqadigan, lekin global emas, balki aniqroq darajadagi aloqalarni o'rganadi. Uning asosiy maqsadi milliy chegaralarni kesib o'tuvchi aloqalar, tarmoqlar va oqimlarni tahlil qilishdan iborat. Qator xususiyatlari ham bo'lib, ularni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- ✓ Chegaralardan tashqaridagi harakatlar. Migratsiya, savdo, g'oyalar, siyosiy harakatlarning chegaralardan o'tishi. Misol tariqasida siyosiy ideologiyalar, feministik harakat, ekologik harakatlarning tarqalishini ko'rsatish mumkin.
- ✓ Diasporalar va tarmoqlar. Muhojir jamoalari, xalqaro tashkilotlar, chegaradosh mintaqalar. Masalan, Afrika diasporasi, yahudiylarning tarqalishi, arab muhojirlari.
- ✓ O'zaro ta'sirlar. Turli jamoalar qanday qilib bir-biriga ta'sir ko'rsatganligini o'rganadi. O'rtayer dengizi, Karib havzasi, Hind okeani mintaqalarini namuna qilish mumkin.
- ✓ Milliy an'analarni qayta ko'rib chiqish. Milliy tarixni uning xalqaro maydonisiz to'liq tushunib bo'lmasligini ko'rsatadi.

Har ikki yondashuvning muhim metodologik yangiliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. "O'zaro bog'liqlik" (Entanglement). Turli jamiyatlar va madaniyatlar qanchalik chambarchas bog'langanligini ko'rsatadi. Masalan, Osiyo to'qimachilik sanoati va Yevropa modasi o'rtasidagi bog'liqlik.

2. Tarmoqli tahlil (Network analysis). Muhojirlar, savdogarlar, missionerlarning yaratgan ijtimoiy va madaniy tarmoqlarini o'rganadi.

3. Aloqalar tarixi (History of connections). Aloqalarning o'ziga xos shakllari va mexanizmlarini o'rganadi.

Mazkur yo'nalishda ham qator muammoli holatlar avjud bo'luib, ular:

*Manbalar tilidagi muammo.* Ko'p tilli manbalarni o'rganish talab qilinadi.

*Sintez qilish qiyinligi.* Turli mintaqaviy ixtisosliklarni birlashtirish murakkab jarayon.

*O'xshashlik xavfi.* Bir-biriga o'xshash mahalliy xususiyatlar global jarayonlarda yo'qolib ketishi mumkin

*G'arb markazchiligi.* Global tarixda hali ham g'arb nuqtai nazari ustunlik qilishi,

Shunga qaramay qator ijobiy ahamiyati ham mavjud:


- Global migratsiya jarayonlarining tarixiy ildizlarini o'rganadi.
- Madaniy identifikatsiyaning murakkab shakllanishini aniqlaydi.
- Xalqaro nizolarning tarixiy maydonini ko'rib chiqadi.
- Pandemiya va iqlim o'zgarishi kabi global muammolarning tarixiy ildizlarini yoritadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, global va transmilliy tarixshunoslik tarixchilarga yangi savollar beradi va yangi metodologik imkoniyatlar ochadi. Ular bizga o'tmishni yangicha, ko'p qirrali va dinamik tarzda ko'rishga yordam beradi, bu esa zamonaviy globalizatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunishga olib keladi.

### **Topshiriq!**

Global va transmilliy yondashuvlar birlashishini ko'rsatuvchi misol keltiring? (Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili asosida)

## “Hind okeani savdo tarmog‘i”



### 4-§ XXI ASR BOSHLARIDA XORIJIY MAMLAKATLAR TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

#### Reja:

1. Pastdan yuqoriga tarix.
2. Raqamli tarix.
3. Ekologik tarix.
4. Xotira va meros tadqiqotlari.
5. Emotsiyalar (his-tuyg‘ular) tarixi.
6. Postkolonializm va dekolonizatsiya.

XXI asrda tarixshunoslik fani an'anaviy usullardan zamonaviy, ko'p qirrali va keskin munozarali fan sifatida rivojlanmoqda. Uning asosiy xususiyatlari va yo'nalishlari quyidagicha:

1. Global va transmilliy tarix. Milliy davlat markazsizlanishida namoyon bo'ladi. An'anaviy tarixshunoslik ko'pincha milliy davlat chegaralarida qolgan bo'lsa, XXI asrda tarixiy hodisalar va jarayonlarni global kontekstda o'rganish ustunlik qilmoqda. Masalan, qulchilik, imperiyalar, tovar zanjirlari, migratsiya oqimlari bir davlat emas, balki bir nechta qit'alar miqyosida tadqiq etiladi. Bunda aloqalar tarmog' sifatida tarixchilar alohida madaniyatlar va jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ta'sirlar va oqimlarni (idealar, tovarlar, odamlar) o'rganishga e'tibor qaratgan.

2. "Pastdan yuqoriga tarix". Oddiy odamlarning ovozidan gapiradi. Hukmdorlar, davlat arboblari va elitalar emas, balki oddiy odamlar, dehqonlar, ishchilar, ayollar, ozchiliklar va boshqa "yo'qotilgan" guruhlarning hayotini qayta tiklash va o'rganishni maqsad qilgan. Shuningdek, kundalik hayot tarixi, ya'ni, keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmagan, ammo kundalik hayotning asosini tashkil etgan mavzular (masalan, ovqatlanish, oila, sog'liq, bozor)i tarixiy tahlilning markaziga qo'yilmoqda.

3. Raqamli tarix. Bunda yirik hajmdagi ma'lumotlarni o'rganish obyektga aylangan bo'lib, arxiv ma'lumotlarini raqamlashtirish va kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish yangi naqshlarni va bog'liqliklarni ochish imkonini beradi (masalan, kitoblar taraqqiyoti, gazeta maqolalari mavzulari, aholi ro'yxatlari). Bunda ayniqsa katta ahamiyatga ega geografik axborot tizimlari va virtual reallik va rekonstruksiya.

Geografik axborot tizimlari (GIS) tarixiy hodisalarning geografik joylashuvini xaritada ko'rsatish va fazoviy tahlil qilish imkonini beradi. Virtual reallik va rekonstruksiya esa qadimgi shaharlar, binolar yoki tarixiy manzaralarni raqamli (qayta tiklash) rekonstruksiya qilinadi.

4. Ekologik tarix (Environmental history). Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir: Iqlim o'zgarishi, epidemiyalar, resurslardan foydalanish, atrof-muhitning inson taraqqiyotiga ta'siri tarixning markaziy mavzulariga aylanmoqda. Asosiy e'tibor "antroposen" tushunchasi qaratiladi, ya'ni, geologik davr sifatida inson faoliyatining yer tizimiga global ta'sirini o'rganish.

5. Xotira va meros tadqiqotlari (memory and heritage studies). Tarix qanday eslanadi? Jamoalar, millatlar o'z tarixlarini qanday shakllantiradi va unga qanday ma'no beradi? Yodgorliklar, muzeylar, bayramlar va norasmiy xotira joylari tadqiqot ob'ektiga aylanmoqda. Masalan, mo'tadil bo'lmagan tarix, ya'ni, mustabid tuzumlar, qullik, kolonializm kabi qiyin va og'ir tarixiy mavzular bilan qanday shug'ullanish kerakligi haqidagi munozaralar.

6. Emotsiya (his-tuyg'u)lar tarixi (History of emotions). His-tuyg'ularning tarixiyliigi, ya'ni, sevgi, qo'rquv, g'azab, hasrat kabi his-

tuyg'ular tarix davomida qanday o'zgargan va qanday qabul qilingan? Ushbu yo'nalish his-tug'ularni ijtimoiy va madaniy konstruksiyalar sifatida o'rganadi.

7. Postkolonializm va dekolonizatsiya (postcolonialism and decolonization). Kolonializm merosi, ya'ni, mustamlakachilik tarixini emas, balki uning hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti va siyosatiga bo'lgan uzoq muddatli ta'sirini o'rganish. Bilimni dekolonizatsiya qilish tushunchasi bo'lib, g'arb markazchiligiga qaratilgan tarixshunoslikni tanqid qilish va mahalliy nuqtai nazarlarni tarixshunoslikka kiritish. Bu, ayniqsa, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa sobiq mustamlakachi davlatlarda keng tarqalgan.

Bu holatni muayyan mamlakatlar misolida ko'radigan bo'lsak:

*AQSH:* Irq, migratsiya, imperiya tarixi va "Amerika istisnoligi" mifini qayta ko'rib chiqish keskin munozaralarga sabab bo'lmoqda. "1619 Project" qulchilikning Amerika tarixidagi markaziy o'rni haqidagi bahs-munozarali loyihadir.

*Yevropa* (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya): Imperiya va kolonializm merosi, urush xotirasi (Ikkinchi Jahon Urushi, Xolokost), Yevropa Ittifoqining tarixiy o'rni, migratsiya va multikulturalizm tarixi keng muhokama qilinmoqda.

*Xitoy:* Xitoyning "milliy qayta tiklanishi" va iqtisodiy o'sishi bilan bog'liq ravishda, Xitoy sivilizatsiyasining uzun tarixini, ayniqsa, uning texnologik va madaniy yutuqlarini o'rganish va targ'ib qilish kuchaymoqda. Shu bilan birga, Xitoy Kommunistik Partiyasining roli haqidagi tadqiqotlar davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinadi.

*Hindiston:* "Sho'ba tadqiqotlari" maktabi bu erda paydo bo'lgan. Mustamlakachilikdan keyingi davr, millatchilik, kastalar va diniy ziddiyatlar tarixi dolzarb mavzulardir.

Shunga qaramay XXI asr tarixshunosligida qator muammolar va bahsli holatlar mavjud.:

"Tarixiy obyektivlik" tanqidi. Postmodernizm ta'sirida ko'pchilik tarixchilar mutlaqo "ob'ektiv" tarixni yozishning iloji yo'qligini, har qanday hikoya ma'lum nuqtai nazar va qadriyatlar bilan shakllanganligini tan olishadi.

"Tarix urushlari". Turli guruhlar (siyosatchilar, jamoat arboblari) o'tmishning qanday talqin qilinishi va o'qitilishi kerakligi haqida o'tkir ijtimoiy-siyosiy bahslar olib borishmoqda. Bu, ayniqsa, maktab darsliklari va muzey ekspozitsiyalarida namoyon bo'ladi.

"Soxta yangiliklar" va tarixiy revizionizm. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tarixiy faktlar va ularning buzilishi o'rtasidagi chegarani xira qilmoqda.

XXI asr xorij mamlakatlari tarixshunosligi global, inklyuziv, fanlararo va texnologik jihatdan rivojlangan yo'nalishda harakatlanmoqda. U o'tmishni nafaqat hukmron guruhlar, balki barcha insonlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga, shuningdek, zamonaviy dunyoning murakkab muammolarini (iqlim o'zgarishi, global tengsizlik) tushunish uchun tarixdan foydalanishga intiladi.

### **Raqamli tarix**

XXI asr tarixshunosligiga eng sezilarli ta'sir ko'rsatgan yo'nalishlardan biridir. Bu atama tarixni o'rganishda raqamli vositalar, usullar va metodologiyalardan foydalanishni anglatadi.

Raqamli tarixning tarixshunoslikka tatbiqi:

1. Raqamli arxivlar va ma'lumotlar bazalari (Digital archives & databases). Qog'oz arxivlar, qo'lyozmalar, gazetalar, fotosuratlar, xaritalar va boshqa barcha tarixiy manbalar raqamlashtiriladi va onlayn taqdim etiladi. Buning afzalligi esa tadqiqotchilar dunyoning istalgan nuqtasidan manbalarga tez va oson kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, xalqaro hamkorlikdagi loyihalarni osonlashtiradi va tadqiqot jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

2. Matnlar qurilishi va tahlili (Text mining & analysis). Katta hajmdagi matnli manbalarni (masalan, yuzlab jurnal maqolalari, qonunlar, nutqlar, adabiy asarlar) kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish. Bu esa muayyan atama yoki tushunchaning (masalan, "erkinlik", "sotsializm", "globalashuv") vaqt o'tishi bilan qanday tez-tez ishlatilganligini kuzatish; katta matnlar to'plamida (korpus) yashirin mavzular va ularning o'zgarishini topish; matnning mualliflik stilini tahlil qilish va muallifni aniqlash (masalan, muallifi noma'lum qo'lyozmalarda) imkonini beradi.

3. Geografik axborot tizimlari (Geographic information systems - GIS). Tarixiy ma'lumotlarni xaritada joylashtirish va fazoviy tahlil qiladi. Urushlarda qo'shinlarning harakatlanish yo'llarini va janglar joylarini ko'rsatish; tarixiy shaharlarning o'sishi, turli davrlarda kvartallarning (masalan, savdo, turar-joy) taqsimlanishini ko'rsatish; odamlar yoki guruhlarining ko'chish yo'nalishlarini va ularning sabablarini (masalan, ocharchilik, urush) tahlil qilish; savdo yo'llari, konlar, zavodlarning joylashishini va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganish v.h.k imkonini beradi.

4. Statistik tahlil va ma'lumotlar vizualizatsiyasi (statistical analysis & data visualization). Tarixiy ma'lumotlarni (aholi ro'yxatlari, soliq yozuvlari, ish haqi ma'lumotlari) statistik usullar yordamida qayta ishlash va natijalarni grafiklar, diagrammalar, interaktiv veb-saytlar shaklida vizuallashtiradi. Murakkab tendensiyalar, naqshlar va bog'liqliklarni an'anaviy matn shaklida ko'rsatgandan ko'ra aniqroq va tushunarliroq ko'rsatish imkoniyatini beradi.

5. 3D modelalashtirish va virtual rekonstruksiya (3D modeling & virtual reconstruction). Vayron bo'lgan yoki o'zgartirilgan tarixiy obidalar, shaharlar yoki manzaralarni kompyuterda uch o'lchovli modeli sifatida qayta yaratadi. Bunda qadimgi Rim yoki qadimgi Misr shaharlarini virtual sayr qilish imkoniyati; tarixiy me'moriy obidalarining asl ko'rinishini tiklash; muzeylardan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyati yaratiladi.

6. Tarmoq tahlili (network analysis). Tarixiy shaxslar, tashkilotlar yoki joylar o'rtasidagi munosabatlar va aloqalar tarmog'ini tahlil qiladi. Madaniy elitalar (rassomlar, yozuvchilar va homiylar) o'rtasidagi aloqalar tarmog'ini o'rganish; siyosiy qarorlar qabul qilish (muayyan qaror qabul qilinishida qanday shaxslar va guruhlar ta'sir ko'rsatgan)ligini tahlil qilish; tijorat tarmoqlari (savdogarlar va kompaniyalar) o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini o'rganishda foydalanish mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda raqamli tarixning afzalliklarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- Keng qamrovlilik. An'anaviy usullar bilan tahlil qilib bo'lmaydigan "katta ma'lumotlar" bilan ishlash imkoniyati.
- Chuqur tahlil. Ko'z bilan ko'rinmaydigan naqshlar va bog'liqliklarni aniqlash.
- Obyektivlik va sinovchanlik. Ma'lum bir fikrni isbotlash uchun emas, balki ma'lumotlar qanday naqshlarni ochishini sinab ko'rish imkoniyati.
- Vizual va tushunarli taqdimot. Tadqiqot natijalarini keng jamoatchilikka yanada tushunarli va jozibali tarzda yetkazish.
- Tarixshunoslikning demokratizatsiyasi. Ko'pchilik manbalar ochiq va bepul bo'lgani sayin, tarixni o'rganish imkoniyati ham kengaymoqda.

Shuningdek, raqamli tarixni qo'llash jarayonida qator cheklovlar va muammolar yuzaga kelmoqda:

- Texnik bilim talabi. Tarixchilar uchun dasturlash, ma'lumotlar bazasi muhandisligi va statistikasi o'rganish yangi talab hisoblanadi.
- "Algoritmik xatolik" xavfi. Dastur yoki algoritm noto'g'ri sozlanganda, natijalar ham noto'g'ri bo'lishi mumkin.
- Kontekstni yo'qotish. Raqamlar va grafiklar bilan shug'ullanayotganda, tarixiy hodisalarning madaniy, ijtimoiy va insoniy konteksti e'tibordan chetda qolishi mumkin.
- Raqamlashtirishning noaniqligi. Ba'zi manbalar (his-tuyg'ular, og'zaki hikoyalar) raqamli shaklga o'tkazish qiyin yoki imkonsiz.

Umuman olganda, raqamli tarixshunoslikni son va matn o'rtasidagi an'anaviy chegaralardan olib chiqib, uni fazoviy, vizual va tarmoqli tahlil darajasiga ko'tarmoqda. Bu yo'nalish tarixchiga o'tmishni tushunishning yangi qurollarini taqdim etadi, ammo u an'anaviy manbashunoslik va tanqidiy fikrlashni almashtirmaydi, balki ularni mustahkamlaydi va boyitadi.

### **Xotira va meros tadqiqotlari**

Bu tarixshunoslikning eng dolzarb va zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u jamiyatlar o'z o'tmishlarini qanday eslash, sharhlash, unga

ma'no berish va undan foydalanish jarayonlarini o'rganadi. Bu soha an'anaviy tarixshunoslikdan farq qiladi. An'anaviy tarix "aslida nima bo'lganini" hujjatlar orqali aniqlashga intilsa, xotira va meros tadqiqotlari "o'tmish qanday eslanayotgani" va "uning hozirga qanday ta'sir qilayotgani" bilan shug'ullanadi.

Shu o'rinda xotira va meros o'rtasidagi asosiy tushunchalarga to'xtalsak,

xotira (memory), bu – jonli, faol va ko'pincha shaxsiy yoki jamoaviy jarayon. U doimiy ravishda hozirgi ehtiyojlar va kelajakdagi maqsadlar asosida qayta quriladi va o'zgartiriladi. Shu jihatdan u ikki turli bo'ladi: 1) Jamoaviy xotira. Muayyan guruh (millat, oila, diniy jamoa) o'z identifikatsiyasini shakllantirish uchun umumiy tarixiy tajribani qanday eslaydi va nishonlaydi. 2) Kontrfaktik xotira. Qanday bo'lishi mumkin edi, ammo bo'lmagan voqealar (masalan, "Agar ikkinchi jahon urushi g'alabasi bo'lmaganda...") haqidagi hayoliy xotira.

Meros (heritage). Bu – xotirani moddiy yoki nomoddiy shaklda muzlatish, saqlash va meros qilib qoldirish. Meros ko'pincha rasmiylashtirilgan, tanlangan va boshqariladigan narsadir. Uning turlari sifatida madaniy meros (muzeylar, yodgorliklar, tarixiy obidalar, an'analar, folklor) va moddiy bo'lmagan meros (tillar, an'analar, bilimlar, hunarmandchilik)ni ko'rsatish mumkin.

Tarixshunoslikda bu yo'nalish qator mavzular ustida ish olib boradi.

1. Yodgorliklar va ularning siyosat bilan bog'liqligi. Yodgorliklar qayerda, qanday va kim uchun quriladi? Ularning ma'nosi vaqt o'tishi bilan qanday o'zgaradi? Masalan, AQSH va Yevropada konfederatsiya, mustamlakachilik va qullik bilan bog'liq shaxslarning haykallari olib tashlanishi yoki ko'chirilishi. Bu voqealar o'tmishning zamonaviy jamiyat tomonidan qayta baholanishi va "xotira urushlari" ning namunasidir.

2. Muzeylarda tarixning ko'rsatilishi. Muzey ekspozitsiyalari qanday hikoya qiladi? Qaysi artefaktlar tanlanadi va ular qanday kontekstda taqdim etiladi? Kimning ovozi eshitiladi, kimning ovozi eshitilmaydi? Masalan, Britaniya muzeyi koloniyalardan olingan artefaktlarni qaytarish masalasini muhokama qiladi.

3. Murakkab o'tmish bilan ishlash. Jamiyatlar genotsid (xolokost), qullik, kolonializm yoki mustabid tuzumlar kabi og'ir va travmatik tarixiy davrlar bilan qanday kurashadi? Misol uchun, Janubiy Afrika: "Haqiqat va yarashtirish komissiyasi" aparteid davridagi jinoyatlar haqida ochiqlik bilan gapirish orqali milliy yaralarni davolashga urindi. Germaniya: genotsid qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan yodgorliklar (yahudiylarga oid yodgorlik) qurish orqali o'z tarixiy javobgarligini tan oladi.

4. Bayramlar, tantanali marosimlar va an'analar. Milliy bayramlar (mustaqillik kuni, g'alaba kuni) qanday nishonlanadi? Ular qanday ma'nolarni yetkazadi va qanday qahramonlarni yoritadi? Bu marosimlar vaqt o'tishi bilan qanday o'zgaradi? Misol uchun, Fransiyada Bastiliya kuni, Rossiyada G'alaba kuni – bu bayramlar nafaqat tarixiy voqeani, balki hozirgi milliy birlik va o'ziga xoslik g'oyalarini ham nishonlaydi.

5. O'ziga xoslik va xotira (identity and memory). Tarixni eslash usuli guruhning (millat, etnik guruh, mahalliy jamoalar) o'ziga xosligini qanday shakllantiradi? Masalan, Turkiyada Usmonli imperiyasi va Mustafo Kamol Otaturk xotirasi, yoki Arman genotsidi xotirasi arman diasporasining o'ziga xosligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu o'rinda bu yo'nalish qanday usullardan foydalanadi degan haqli savol paydo bo'ladi. Xotira va meros tadqiqotlari fanlararo soha bo'lib, quyidagi usullardan foydalanadi:

- ❖ Madaniyatshunoslik. Matnlar, tasvirlar va ob'ektlarni semiotik tahlil qilish.
- ❖ Sotsiologiya. So'rovnomalar, intervyular orqali jamoaviy xotira va fikrlarni o'rganish.
- ❖ Antropologiya. Marosimlar, bayramlar va ularning ijtimoiy amaliyotlarini kuzatish.
- ❖ Og'zaki tarix. Guvohlarning shaxsiy xotiralarini yozib olish va tahli qilish.

Bu yo'nalish shuni ko'rsatadiki, tarix kitoblardagi jimgina faktlar emas, balki hozirgi siyosat, madaniyat va o'ziga xoslikning faol qismidir. Shuningdek, jamiyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ko'pincha o'tmishning

turli talqinlari tufayli kelib chiqadi. Bu soha ushbu nizolarni tushunishga yordam beradi. Hamda an'anaviy tarixda eshitilmagan guruhlarning (mahalliy xalqlar, ozchiliklar) o'z tarixlarini aytib berish va ularning xotirasini tan olish uchun maydon yaratadi.

Umumiy qilib aytganda, xotira va meros tadqiqotlari bizga shuni tushunishga yordam beradi: o'tmish hech qachon butunlay o'tib ketmaydi. U doimiy ravishda hozirgi zamonda qayta talqin qilinadi, bahs-munozara qilinadi va undan kelajakni qurishda foydalaniladi. Bu soha tarixning nafaqat "nima bo'lgani" haqida, balki "u biz uchun nima ma'noni anglatishi"ini ham ta'kidlaydi.

### **Emotsiyalar tarixi**

Bu nisbatan yangi, ammo juda dinamik rivojlanayotgan tarixshunoslik yo'nalishi bo'lib, u insoniyat tarixidagi his-tuyg'ularning o'rni va o'zgarishini o'rganadi. Uning asosiy g'oyasiga ko'ra, his-tuyg'ular tabiiy va universal bo'lsa-da, ularning ifodalanishi, qabul qilinishi, qiymatlari va hatto tajribasi tarix davomida madaniy va ijtimoiy jihatdan o'zgarib borgan. An'anaviy tarix urushlar, siyosat yoki iqtisodiyot kabi "og'ir" mavzular bilan shug'ullansa, emotsiyalar tarixi quyidagi savollarga javob izlaydi:

? Ma'lum bir davrda qanday his-tuyg'ular maqbul yoki maqbul emas deb hisoblangan?

? Odamlar o'zlarining ichki kechimmalarini qanday izohlashgan va tasvirlashgan?

? Sevgi, g'azab, qo'rquv, hasrat kabi his-tuyg'ular vaqt o'tishi bilan qanday o'zgargan?

? Hukmronlik qilish, isyon qilish yoki savdo qilish kabi ijtimoiy amaliyotlar qanday his-tuyg'ularga asoslangan?

Bu yo'nalishning asosiy qarashlari:

1. His-tuyg'ular rejimi. Jamiyatda hukmron bo'lgan his-tuyg'ular qoidalari. Ma'lum bir davr (masalan, Viktoriya davri) qat'iy odob-axloq qoidalari bilan ma'lum his-tuyg'ularni (masalan, haddan tashqari quvnoqlik yoki ochiq g'azabni) bostirishi mumkin. Misol uchun, XVII asr Yevropa qirollik sudlarida "sharaf" va "g'ayrat" muhim hisoblangan, ammo bu his-tuyg'ular aniq odob-axloq qoidalari doirasida ifodalangan.

2. His-tuyg'ular jamoasi. His-tuyg'ularni ifodalash va baholashning bir xil qoidalariga amal qiladigan kichik guruhlar. Bir jamiyat ichida bir nechta his-tuyg'ular jamoalari bo'lishi mumkin. Masalan, ruhoniylar jamoasi, ritsarlar jamoasi va savdogarlar jamoasi o'zlariga xos his-tuyg'ular qoidalariga ega bo'lishi mumkin.

His-tuyg'ular nomoddiy bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri kuzatilmaydi. Shuning uchun tarixchilar ularning ifodalari va tillarini o'rganadilar:

- ❖ Adabiyot va badiiy asarlar. She'rlar, romanlar, pyesalar. Masalan, Shekspir qahramonlarining g'azabi yoki sevgisi o'sha davr his-tuyg'ular qoidalari haqida ma'lumot beradi.
- ❖ Diniy va falsafiy traktatlar. G'azab, hasad, muhabbat kabi his-tuyg'ularni qanday sharhlash va boshqarish kerakligi haqidagi qo'llanmalar.
- ❖ Shaxsiy hujjatlar. Kuntuzmalar, xatlar, avtobiografiyalar. Bu yerda odamlar o'z his-tuyg'ularini qanday tasvirlashganligi muhim.
- ❖ Sud arxivlari. Jinoyatlar, janjallar, xiyonatlar bilan bog'liq ishlar. G'azab, hasad, nafrat kabi his-tuyg'ular sud jarayonlarida qanday ifodalangan?
- ❖ Tibbiy asarlar. G'ayritabiiy deb hisoblangan his-tuyg'ular (masalan, "isteriya") qanday davolangan?
- ❖ San'at asarlari. Rassomlik va haykaltaroshlik asarlaridagi yuz ifodalari, pozalar va ramzlar.

Bu yo'nalish bir nechta tadqiqot mavzulari doirasida faoliyat olib boradi:

1. G'azab tarixi. O'rta asrlarda g'azab ko'pincha shaxsning obro'si va "sharafi" bilan bog'liq bo'lgan, maqbul va hatto majburiy reaksiya sifatida ko'rilgan. Zamonaviy davrda esa g'azab boshqarish qiyin bo'lgan, ijtimoiy munosabatlarni buzadigan va psixologik muammo belgisi sifatida qaraladigan salbiy his-tuyg'uga aylanadi.

2. Qayg'u va yo'qotish tarixi. Turli madaniyatlarda va davrlarda qayg'uni ifodalashning qoidalari qanday o'zgardi? Qora kiyish an'anasi, yig'lash muddati va yo'qotishga munosabat qanday o'zgargan?

3. Qo'rquv tarixi. O'rta asrlarda odamlar jodugarlar va iblislardan qo'rqishgan bo'lsa, zamonaviy davrda terrorizm, iqtisodiy inqiroz va iqlim o'zgarishi kabi yangi qo'rquvlar paydo bo'ldi.

Mazkur yo'nalishning ahamiyati shundan iboratki, u:

- ❖ Tarixni "insonlashtiradi": U tarixni g'alaba va mag'lubiyatlar ro'yxatidan oddiy odamlarning hayoti va hissiyotlari bilan to'ldiradi.
- ❖ Kuch munosabatlarini tushunish imkonini beradi. Hukmronlik nafaqat qurol yoki qonunlar, balki qo'rquq, umid va sadoqat kabi his-tuyg'ular orqali ham amalga oshiriladi.
- ❖ Zamonaviy muammolarga yndashuv. Depressiya, tashnalik yoki bezovtalik kabi zamonaviy his-tuyg'ular buzilishlarini tarixiy kontekstda tushunishga yordam beradi.
- ❖ Madaniyatlararo tushunishga yordam beradi. Turli madaniyatlarning his-tuyg'ulariga bo'lgan munosabatini o'rganish orqali ularning dunyoqarashini tushunish osonlashadi.

Xulosa qilganda, emotsiyalar tarixi bizga shuni ko'rsatadi: sevish, g'azablanish yoki qo'rqishning o'zi emas, balki bu his-tuyg'ularni qanday yashash, tushunish va ifodalashning o'zi tarixan o'zgarib turgan. Bu yo'nalish tarixni tushunishda yangi, chuqur qatlamni ochadi va o'tmish odamlarini nafaqat qiladigan ishlari, balki his qilishlari jihatidan ham ko'rib chiqishga imkon beradi.

### **Postkolonializm va dekolonizatsiya**

Bu nafaqat tarixshunoslik, balki adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va sotsiologiyani qamrab olgan muhim intellektual va ijtimoiy harakatdir. Bu atamalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, turlicha ma'nolarni anglatadi. Dekolonizatsiya – siyosiy va huquqiy jarayon. Bu mustamlakachi hokimiyatning tugashi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi va bevosita imperial nazoratning bartaraf etilishini anglatadi. Bu jarayon asosan XX asrning o'rtalarida keng tarqalgan. Misol uchun, Hindistonning 1947-yilda Britaniyadan mustaqillikka erishishi. Postkolonializm esa – madaniy, intellektual va psixologik jarayon. Mustamlakachilikning siyosiy jihati tugagan bo'lsa-da, uning madaniy,

iqtisodiy, tiliy va psixologik ta'siri davom etmoqda. Postkolonializm ana shu davom etayotgan meros, munosabatlar va tizimlarni tanqidiy o'rganadi. Misol uchun, G'arb adabiyotida sharq xalqlari haqidagi stereotip tasvirlar ("Boshqalar"larning) yoki sobiq mustamlakalarda G'arb tillarining ustunlik qilishini o'rganish.

Postkolonial tarixshunoslikning asosiy maqsadi mustamlakachilikning nafaqat o'tmishdagi, balki hozirgi zamonnga ta'sirini o'rganish va mustamlakachi nuqtai nazardan mustamlakachilikka qarshi nuqtai nazarga o'tish. Quyida postkolonial tarixshunoslikning asosiy tadqiqot mavzulariga e'tibor qaratsak,

1. Bilim va hokimiyat. Mustamlakachilar o'zlarini "madaniy, rivojlangan, oq rangli" deb tasvirlab, mustamlakachilik qilingan xalqlarni "yovvoyi, bolalar, iste'dodsiz, noaniq" deb ko'rsatishgan. Uning asosiy tarafdori Edvard Saidning "Sharqshunoslik" (Orientalism) asari bu sohaning asari hisoblanadi. U g'arb olimlari, rassomlari va siyosatchilari tomonidan yaratilgan "Sharq" tasvirini tanqid qiladi.

2. Subaltern tadqiqotlar. Bu yo'nalish nafaqat mustamlakachilar, balki mustaqillik kurashidagi o'ta elita (masalan, Mahatma Gandi) tomonidan ham ovozsiz qoldirilgan oddiy qishloq aholisi, dehqonlar, qabilalar va ayollarning o'z tarixini qayta yozishga harakat qiladi. Bu maktab Hindistonda paydo bo'lgan, ammo hozir butun dunyoga tarqalgan.

3. Millatchilik va milliy identifikatsiyaning qurilishi. Mustaqillikdan keyingi yangi davlatlar o'z milliy o'ziga xosliklarini qanday qurishgan? Ko'pincha ular mustamlakachi tomonidan chizilgan chegaralarni meros qilib olishgan va ichki etnik, diniy va lingvistik xilma-xillik bilan kurashishlari kerak bo'lgan.

4. Madaniy gibridlilik. Mustamlakachilik va global migratsiya natijasida paydo bo'lgan yangi, aralash madaniyatlar. Bu atama (Homi K. Bhabha kabi nazariyotchilar tomonidan ishlab chiqilgan) madaniylarning "sof" emas, balki doimiy ravishda o'zaro ta'sir qilish va o'zgarish jarayonida ekanligini ta'kidlaydi.

5. Til va adabiyotning roli. Mustamlakachilar o'z tillarini (masalan, ingliz, fransuz, ispan tillari) ma'muriyat va ta'lim tili sifatida joriy qilishdi. Bu mahalliy tillarni qiyin vaziyatga soldi. Ko'p sobiq

mustamlakalar hali ham ta'lim va hukumatda mustamlakachi tilidan foydalanish yoki mahalliy tillarni qayta tiklash o'rtasida tanlov qilishmoqda.

Dekolonizatsiya tarixshunosligi esa: mustaqillik urushlari va harakatlari; mustaqillikdan keyingi davlat qurilishi va modernizatsiya; neokolonializm – rasmiy mustamlakachilik tugaganidan keyin ham sobiq mustamlakalarni iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan nazorat qilishda davom etish (masalan, transmilliy korporatsiyalar orqali) kabilarni o'rganadi. Uning o'ziga xosligi esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ❖ Haqiqatni ko'paytiradi. U tarixga faqat g'oliblar (mustamlakachilar) emas, balki mag'lublar (mustamlakachilik qilingan xalqlar) nuqtai nazaridan ham qarash imkonini beradi.
- ❖ Hozirgi zamonni tushunishga imkon beradi. Global janub va global shimol o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy tengsizliklarning ildizlarini mustamlakachilik tarixidan izlaydi.
- ❖ Madaniy xilma-xillikni ta'kidlaydi. Dunyoning bir qancha madaniy an'analar, bilim tizimlari va dunyoqarashlardan iborat ekanligini eslatadi.
- ❖ "Universallik" g'oyasini tanqid qiladi. G'arbiy qadriyatlar va tizimlarning butun dunyo uchun "universal" va "me'yor" ekanligi g'oyasini qayta ko'rib chiqadi.

Umumiy qilib aytganda, postkolonializm va dekolonizatsiya nafaqat o'tmishdagi voqealar haqida emas, balki tarix qanday yozilishi, kim tomonidan yozilishi va kimning foydasi uchun yozilishi haqida. Bu soha bizga mustamlakachilikning nafaqat siyosiy xaritalarni, balki fikrlash, bilish va o'zimizni anglash usullarimizni qanday shakllantirganligini tushunishga yordam beradi. Bu – hozirgi kunning global muammolarini chuqurroq tushunish uchun muhim kalitdir.

## XULOSA

“Tarixshunoslik” fanidan talabalar mustaqil ishlari bo‘yicha tayyorlangan ushbu uslubiy qo‘llanma mazmunan mustaqil ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, ularning tahliliy, izlanish va ijodiy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Qo‘llanma “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi va milliy tarixni yangicha ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida o‘rganish tamoyillariga tayanadi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma talabalarga fan bo‘yicha mustaqil ta‘limni tashkil etishda metodik yo‘l-yo‘riq beradi. Unda:

- mustaqil ishning maqsad va vazifalari;
- mavzular bo‘yicha tavsiya etilgan topshiriqlar, test va nazorat savollari;
- manbalar bilan ishlash usullari;
- ilmiy maqola, referat, taqdimot va tahliliy ishlarni tayyorlash mezonlari keltirilgan.

Mazkur qo‘llanmaning ahamiyatli jihati shundaki, u talabalarni faol o‘quvchi-subyekt sifatida shakllantirish, ularning tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil va tarixiy voqealarni baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Qo‘llanma zamonaviy ta‘lim jarayonida kredit-modul tizimi talablariga mos ravishda tuzilgan bo‘lib, unda har bir mustaqil ish mavzusi uchun o‘quv maqsadi, tavsiya etilgan adabiyotlar, baholash mezonlari va ijodiy yondashuvga undovchi topshiriqlar keltirilgan. Bu esa talabalarga mavzularni chuqur o‘rganish, milliy va jahon tarixidagi o‘zaro aloqador jarayonlarni solishtirish imkonini beradi.

Qo‘llanma o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat o‘quv-metodik manba, balki talabalarni ilmiy izlanish faoliyatiga tayyorlovchi amaliy qo‘llanma vazifasini ham bajaradi. Unda mustaqil ishni tashkil etish metodikasi, tarixiy manbalar bilan ishlash madaniyati, tarixiy tahlil usullariga oid tavsiyalar alohida e‘tibor bilan yoritilgan. Shuningdek, qo‘llanmada mustaqil ishlarni baholashning kriterial tizimi aniq va qulay

tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, bu talaba o'z bilim darajasini ob'yektiv aniqlashga yordam beradi.


Qo'llanma o'qituvchilarga ham metodik yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi, chunki u o'quv jarayonida mustaqil ishlarni baholash, yo'naltirish va rag'batlantirish mexanizmlarini aniq belgilab beradi.

Shu tariqa, mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston tarixini chuqur o'rganish, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalash, yosh avlodni Vatanga sadoqat va tarixiy xotiraga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan muhim ilmiy-uslubiy manba hisoblanadi.

## **Tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish – xalqimiz farovonligini ta’minlashning asosiy omili. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. – 320 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Adolat”, 2023. – 64 b.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – 176 б.
5. Афанасьев Ю.Н. История против эклектики. – М., 1980.
6. Барг М.А. «Историческое время»: методологический аспект // Новая и новейшая история. 1990. № 1. С. 66 – 67.
7. Баринаева Е.П., Иполлитов Г.М., Бобкова Е.Ю. Основы теории и методологии исторической науки: Учебное пособие в схемах. – М., 2010
8. Бибииков Г.Н., Бибиикова Л.В. Методология современной истории: историографический очерк. — М.: Фонд современной истории, Издательство Московского университета, 2011.
9. Бродель Ф. История и общественные науки. Историческая деятельность // Философия и методология истории. Благовещенск, 2000. С. 133.
10. Гринин Л. Е. Теория, методология и философия истории: очерки развития исторической мысли от древности до середины XIX века. Лекция 4. Философско-историческая мысль в Средние века. Византия, Русь, арабский мир, Китай / Философия и общество. Выпуск №2 (58) / 2010. <http://www.socionauki.ru>
11. Грязнов В.М. Методология научного творчества. – М.: РУДН, 2000.
12. Иванов Г.М. и др. Методологические проблемы исторического познания. – М., 1981.

13. Ковальченко Д.И. Методы исторического исследования. – М.: Наука. 2003.
14. Ковальченко И.Д. Методы исторического исследования. – М.: Наука, 1987.
15. Коллингвуд Р.Дж. Идея истории; Автобиография. – М., 1980.
16. Репина Л.П. «Новая историческая наука и социальная история». – М., 1998.
17. Савельева И.М., Полетаев А.В. «История и время». 1997.
18. Смоленский Н.И. Теория и методология истории. – М.: «Академия». 2007.
19. Смоленский Н.И. Теория и методология истории: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. 2-е изд., – М.: Издательский центр «Академия», 2008. С.16.
20. Сорокин П.А. Голод как фактор. – М., 2003. С. 4.
21. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: «Ўзбекистон». 1997.
22. Топольский Е. Методология истории. Варшава. 1968.
23. Фролова Е.А. История арабо-мусульманской философии. Средние в.а и современность: Учебное пособие. — М., 2006.
24. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М., 1991.



**NODIRA XOLMONOVA**

**TARIXSHUNOSLIK**  
**(xorij mamlakatlari)**

*uslubiy qo'llanma*

Bosishga ruxsat etildi. 19.12.2025 y.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman  
garniturasida terildi.  
Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.  
Nashriyot hisob tabog'i 4, Adadi 50. Buyurtma № 08-01  
Bahosi kelishuv asosida.

«ZUXRO BARAKA BIZNES» MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.